Қутқарув тузилмалари миқдори, таркиби ва таъминоти чекланганлиги, табиий офат ҳудудининг мураккаблиги туфайли аҳолига тезкор ёрдам кўрсатишда жиддий муаммолар кузатилган.

Хусусан, яшаш воситалари, маиший жиҳозлар, ичимлик суви, озиқ-овқат маҳсулотларига эҳтиёж кескин ошиб, қутқарувчилар, тиббий ходимлар, психологик ёрдам ва таъминот мутахассисларига эҳтиёж юзага келган.

Бундан ташқари, аҳоли ҳаёт таъминоти издан чиққанлиги, одамлар ва ҳайвонлар жасадлари вайроналар остида қолганлиги санитария ҳолати ёмонлашуви хавфини ошириб, тезкор чоралар ўтказиш зарурати юзага келган.

Бир миллион нафарга яқин аҳоли яшаган минтақада рўй берган ҳалокатли zilzila oziq-ovqat, dori-darmon, ichimlik va xўжалик суви ресурслари танқислиги, етиштирилган ҳосилни йиғиб олиш, уй-жойларни тиклаш, аҳолига малакали тиббий ёрдам кўрсатиш, вайроналарни тозалаш ва жасадларни зарарсизлантириш тадбирларини амалга ошириш орқали талофат ҳудудида аҳоли ҳаёт фаолияти учун яроқли шароитларни яратиш каби кенг кўламли қутқарув ишларини амалга оширишни талаб қилмоқда.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг манбаларига кўра, фақат бошпанасиз қолган аҳоли сони қарийб 25 минг нафарга етган.

Маҳаллий кучларнинг имконияти чекланганлиги, ресурслар танқислиги сабабли халқаро ташкилотлар ва хорижий давлатлар ёрдами йўлга қўйилиб, фуқаро муҳофазаси тадбирлари босқичма-босқич олиб борилмоқда [3].

Маълумот учун: яроқсиз ҳолатдаги бинолар вайроналари ҳажми тахминан 650 минг тоннани ташкил этиб, қурилиш чиқиндиларини олиб чиқиш учун юк машиналари қарийб 40 минг маротаба жалб этилиши зарур.



2-расм. Филиппинда 2025 йил 30 сентябрда рўй берган кучли zilzila ўчоғи

Шу билан бирга, фуқаро муҳофазаси тадбирлари талаб даражасида йўлга қўйилганлиги, табиий офатларда аҳоли ўртасида жароҳатланиш ва ўлим ҳолатлари ҳамда моддий талофатлар камайишига хизмат қилади.

Жумладан, жорий йилнинг 30 сентябрь куни Филиппиннинг Себу провинциясидаги Бого шаҳрида 6,9 магнитудали zilzila рўй бериб, ҳаёт таъминоти тизимлари ва бино, иншоотлар жиддий зарарланган (2-расм).

Ер силкиниши оқибатида 72 нафар аҳоли ҳалок бўлиб, 300 нафарга яқини жароҳатланган, 10 дан зиёд фуқаролар бедарак йўқолган. Табиий офатлардан огоҳлантириш ва оқибатларини юмшатиш миллий кенгаши маълумотида кўра, зилзиладан жабрланганлар сони 170 минг нафарни ташкил этиб, 23 минг нафари уй-жойларини вақтинча тарк этган [4].

Шифохоналар касаллар билан тўлган бўлиб, зилзила ўчоғидаги аҳолининг бир қисми чодирларда вақтинча яшаш учун хавфсиз ҳудудга жойлаштирилган.

Қидирув-қутқарув ишларини ёмғирли ва ҳаёт таъминоти тизимлари (электр, сув таъминоти, йўл ва кўприклар) ишдан чиққан шароитда олиб боришга тўғри келаётган бўлиб, қутқарув ишлари узлуксиз йўлга қўйилган.

Филиппин фуқаро муҳофаза бошқармаси мувофиқлаштируви остида ёнғин-қутқарувчилар, полиция, ҳарбий хизматчилар, тиббиёт ходимлари, коммунал соҳа ходимлари жавобгарлик соҳасидаги тадбирларни амалга ошириб, вайроналарда қидирув-қутқарув ишларини олиб бориш, бошпанасиз қолган аҳолини хавфсиз ҳудудларда ташкил этилган бинолар ва енгил конструкцияли иншоотларда вақтинчалик жойлаштириш чоралари кўрилди.

Шунингдек, соҳавий хизматлар томонидан коммунал-энергетика тизимидаги носозликларни босқичма-босқич бартараф этиш, жароҳатланган аҳолига ёрдам кўрсатиш, вафот этганларнинг жасадларини дафн этиш, аҳолини тоза ичимлик суви, озиқ-овқат ва бирламчи эҳтиёж воситалари билан таъминлаш вазифалари устуворлиги бўйича амалга оширилмоқда [5].

Қайд этилган ҳолатларда табиий офат рўй берган мамлакатларнинг сейсмик фаол минтақаларда жойлашганлиги, зилзила кучи юқорилиги ўхшаш бўлсада, бино ва иншоотларнинг зарар кўриш даражаси, қутқарув ишларига жалб этилган кучларнинг шайлиги, муҳофаза тадбирларининг ташкил этилиши ҳалок бўлган ва жароҳатланганлар кўлами кескин фарқ қилмоқда.

Бу ўз навбатида аҳоли ва ҳудудларни фавқулодда вазиятларга тайёрлаш, фуқаро муҳофазаси кучлари шайлигини таъминлашга қаратилган тадбирларнинг аҳамиятини кўрсатмоқда.

Шунингдек, юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларни бартараф этишга мўлжалланган моддий-техник ресурслар захирасининг танқислиги, куч ва воситалар имкониятининг чекланганлиги, белгиланган вазифаларни бажариш ҳолатига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Қолаверса, ҳар бир соҳавий хизмат зиммасидаги вазифани қисман бажариши ёки бажара олмаслиги қутқарув ишлари самарасини пасайтиради.

Юқоридаги муаммолар ҳаёт таъминоти тизимларининг узоқ муддат ишдан чиқиши, аҳоли ўртасида жабрланиш ҳамда вафот этиш ҳолатларининг ошиши, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий объектларнинг кўп миқдорда зарар кўришига сабаб бўлади [6].

Шу муносабат билан, кенг кўламли кутқарув ишлари олиб борилиши талаб қилинадиган йирик фавқулодда вазиятларда куч ва воситаларни бошқа ҳудуддан жалб қилиш орқали масалани ҳал қилиш мақбул ечим ҳисобланади.

Бунда Фуқаро муҳофазаси тузилма (бўлинма)ларини ташиш ҳудуднинг ўзига хослиги, транспорт тизими имкониятларини ҳисобга олиб ўтказилади.

Фавқулодда вазиятни бартараф этиш учун кучларни белгиланган ҳудудга тезкор ташиш орқали жалб этиш асосий мақсад этиб белгиланган.

Фуқаро муҳофазаси кўшинларини автомобиль, темир йўл, ҳаво ва дарё транспортида ташиш тадбирлари, таркибида қайд этилган транспорт турлари мавжуд вазирлик ва идоралар билан ҳамкорликда ташкил этилади.

Ташишни режалаштиришдан олдин зарурий ҳисоб-китоблар амалга оширилиб, қуйидагилар акс эттирилиши лозим:

шахсий таркиб, техника, асбоб-анжомларни ташиш учун талаб этиладиган темир йўл, ҳаво ва дарё транспорти воситалари тури, сони, сифими ҳамда зарурий мосламалар сони;

транспорт воситаларидан самарали фойдаланиш учун ташиладиган куч ва воситаларни мақбул жойлаштириш бўйича ҳисоб-китоблар.

Ташиш ҳисоб-китобларини тайёрлашда қуйидагилар бўлиши зарур: ташиладиган тузилма (бўлинма)лар шахсий таркиби сони, техника ва асбоб-анжомлар миқдори, ўлчамлари, вазни;

темир йўлда юklar ташиладиган эшелон, поезд тури, таркиби; вагон ва сув транспортида шахсий таркибни жойлаштириш меъёри; ташишнинг ўзига хос хусусиятлари, шароитлари, манзил масофаси [7].

темир йўл платформаси ва вагонларида шахсий таркиб, техника, асбоб-анжомларни ташиш бўйича меъёрлар 1.1-1.4 жадвалларда келтирилган.

1.1 жадвал

Тўрт ўқли платформалар, ярим вагонлар, вагонларнинг техник тавсифи

т/р	кўрсаткич	платформа	ярим вагон	вагон
1.	Ўқларни улаш бўйича узунлик, мм.	14 620	13 920	14 730
2.	Пол қисмининг ўлчамлари узунлиги кенглиги баландлиги	13 300 2 770 -	12 076 2 878 2 060	13 800 2 764 2 791
3.	Полнинг рельслар устки қисмидан баландлиги, мм.	1 302	1 414	1 283
4.	Вазни, т	20,9	22,0	23,0

Йўловчи вагонларнинг техник хусусиятлари

т/р	Вагон тури	Ўқлар улаш узунлиги	Ўринлар сони	
			ётоқ учун	ўтиришга
1.	Тўрт ўринли юмшоқ купе	24 537	32	-
2.	Икки ва тўрт ўринли юмшоқ купе	24 537	32	-
3.	Қаттиқ (дағал) купе	24 540	36	-
4.	плацкарт (қаттиқ купесиз)	24 537	54	81

**Ҳаво транспортида шахсий таркиб, техника, асбоб-анжомларни
жойлаштириш ва юклаш меъёрлари**

- Шахсий таркиб:
 - 1 палубали шаклда – 145 нафар
 - 2 палубали шаклда – 225 нафар
 - техника билан – 80 нафар
- Техника:
 - 16 т. юк кўтарувчи автокран – 2 та
 - ЭОВ-4421 экскаватори – 2 та
 - Т-130 бульдозери – 2 та
 - ТО-18А юклагичи – 3та
 - РХМ машиналари – 3 та
 - Кўчма ошхона – 2 та
 - Компрессор станциялари – 4 та
 - Зил-131 автомобили – 2 та
 - Камаз автомобили – 2 та
 - Уаз-31519 автомобили – 4 та
 - Исузу автомобили – 2-3 та
 - Газель автомобили – 3-4 та

**Темир йўл транспортида ташиш қуйидаги кетма-кетликда
бажарилади:**

- Ҳаракатдаги таркибда вагонларга умумий талабни ($M_{ум}$) аниқлаш:

$$M_{ум} = M_{шт.} + M_{тех} + M_{ко} + M_{ют}, \quad \text{бирлик}$$

Бунда:

- $M_{шт.}$ - шахсий таркибни ташиш учун вагонлар сони;
- $M_{тех}$ - моддий-техник воситаларни ташиш учун вагонлар сони;
- $M_{ко}$ - ҳаракатдаги кўчма ошхоналар учун вагонлар сони;
- $M_{ют}$ - юкларни ташиш учун вагонлар сони.

- Озиқ-овқат омборлари, изоляторлар, офицерлар ва мансабдор шахсларни жойлаштириш учун зарур вагонларга талабни ($M_{еш}$) аниқлаш:

$$M_{еш} = M_{ман} + M_{оо} + M_{изол} \quad \text{бирлик.}$$

Бунда:

- $M_{ман}$ - эшелондаги мансабдорлар (маъмурият) ва офицерларни жойлаштириш учун вагонлар сони;
- $M_{оо}$ - эшелондаги озиқ-овқат омборлари учун вагонлар сони;
- $M_{изол}$ - эшелондаги изоляторлар учун мўлжалланган вагонлар сони.

3. Ҳарбий поезд узунлигини ҳисобга олиб, куч ва воситаларни ташиш учун талаб этиладиган эшелонлар ($N_{\text{эш}}$) сонини аниқлаш:

$$N_{\text{эш}} = \frac{M_{\text{ум}}}{M_{\text{хп}} - M_{\text{эш}}}, \text{ бирлик}$$

Бунда: $M_{\text{хп}}$ - ҳарбий поезддаги вагонларнинг тахминий сони.

4. Тузилма ва бўлинмаларни эшелонлар бўйича тақсимлаш.

Эшелонни шакллантириш учун кўп сонли техникага эга батальон (отряд, қисм) асос қилиниб, поезд узунлигини белгиланган меъёрга келтириш мақсадида бошқа бўлинмалар ҳам жалб этилиши мумкин. Поезд узунлиги шартли вагонларда ҳисобланади. Битта вагоннинг узунлиги 14 метрга тенглаштирилади.

Темир йўл вагонларини шартли вагонлар турига қараб ҳисоб-китоб қилиш коэффиценти 1.4 жадвалда келтирилган.

1.3 жадвал

Ҳаракатдаги таркиб узунлиги коэффицентини қайта ҳисоблаш (шартли вагонларда)

т/р	Вагон тури	коэффицентни қайта ҳисоблаш
1.	Тўрт ўқли ёпик вагон	1,10
2.	Тўрт ўқли платформа	1,05
3.	Йўловчи вагони	1,75
4.	Тўрт ўқли ярим вагон	1,00

5. Олинган маълумотлар асосида темир йўл транспортида тузилма (бўлинма)ни ташиш ҳисоб-китоблари намунавий бланкда тўлдирилади.

6. Ҳар бир ҳарбий эшелон вазнининг белгиланган меъёрга мувофиқлигини кўрикдан ўтказиш.

Поезд вазнининг белгиланган меъёрдан ошиши ҳолатларида, меъёр даражасига келтирилгунига қадар тузилма (бўлинма)ларнинг ортиқча юки, бошқа ҳарбий поездлар ўртасида тақсимланади.

Фуқаро муҳофазаси қўшинларини ташишда поездлар сонига талабни аниқлаш учун қуйидаги чекловлар ҳисобга олиниши лозим:

ҳарбий эшелонли поезднинг вазни ва узунлиги улар ҳаракатланадиган йўналишлардаги белгиланган ҳаракат жадвали бўйича ўрнатилган меъёрлардан ошмаслиги керак.

Темир йўл транспорти ҳаракатдаги таркибининг асосий турлари бўйича вазни қуйидаги жадвалда акс эттирилган:

Харакатдаги таркиб вазни

т/р	Вагон тури	вагон вазни, тн
1.	Тўрт ўқли ёпиқ вагон	24
2.	Тўрт ўқли платформа	21
3.	Йўловчи вагони	50-58
4.	Тўрт ўқли ярим вагон	22

Қоида тариқасида 1 та поезднинг вазни ва узунлиги мос равишда 1500 т ва 40 вагондан ёки 3000 т ва 57 вагондан иборат бўлади [8].

Хулоса қилсак, фавқулодда вазиятларда фуқаро муҳофазаси кучларини самарали жалб этиш масаласи муҳимлиги ошиб бормоқда.

Юқорида қайд этилган ҳолатлар, ўз навбатида фуқаро муҳофазаси тадбирлари самарадорлигини ошириш борасида қуйидаги комплекс чора-тадбирларни белгилаш ва амалга оширишни талаб қилади:

корхона, ташкилотларни иқтисодиётдаги аҳамияти ва соҳавий муҳимлик даражасига кўра таснифлаб, барқарор фаолият кўрсатишини таъминлашга оид устувор чора-тадбирларни амалга ошириш;

объектлар барқарорлигини ошириш мақсадида фуқаро муҳофазаси тузилмаларини етарли миқдорда ташкил этиб, малакали мутахассислар билан жамлаш ва тайёргарлик даражасини ошириб бориш;

фуқаро муҳофазаси тузилмаларини таркиби ва миқдори бўйича белгилашда объектарда юзага келиши мумкин бўлган хавф манбалари, тахминий кўлами, муҳофаза тадбирларига жалб қилинадиган инсон ресурслари, моддий-техник захиралар миқдorigа эътибор қаратиш;

фавқулодда вазиятларда биринчи соатлардаги тадбирларни жойлардаги куч ва воситалар билан йўлга қўйиб, олиб бориладиган ишлар кўламини жадаллаштириш учун фуқаро муҳофазаси кўшинлари ва хизмат тузилмаларини жалб қилиш;

йирик табиий ва техноген аварияларни бартараф этиш жараёнида куч ва воситалар танқислиги юзага келганда мақбул ҳудудлардан фавқулодда вазият ҳудудига тезкор ташиш ҳисоб-китобларини тайёрлаш.

Фойдаланилган адабиётлар

[1] Бирлашган Миллатлар Ташкилоти 2-қўмитасида 2017 йилда ўтказилган муҳокама материаллари тўплами.

[2] БМТнинг болалар жамғармаси (UNICEF) ҳисоботи.

[3] <https://news.un.org/ru/story/2025/09/1466318>

[4] <https://ru.wikipedia.org/wiki>

[5] <https://www.bbc.com/russian/articles/cvg0zv904zno>

[6] <https://docs.cntd.ru/document/557348629>.

[7] <http://militera.lib.ru/science/tactic/08.html>

[8] “Положение о порядке обеспечения перевозок сил, средств и материально-технических ресурсов, необходимых для проведения работ по ликвидации чрезвычайных ситуаций” (№132 01.02.1993г.)

UO‘K 331.45:621.65

Zokirova N.S. t.f.f.d. (PhD), dotsent, Xojiev A.A.
 “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash
 muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
 Yo‘ldosheva O.M

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
 Xodimlarning malakasini oshirish markazi

NASOS STANSIYALARIDA QO‘LLANISHI TAKLIF ETILAYOTGAN OLOVBARDOSH HIMOYA KIIYIMLARINING YONG‘IN-TEXNIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Annotatsiya: Maqolada nasos stansiyalarida qo‘llanishi taklif etilayotgan olovbardosh himoya kiyimlari uchun foydalaniladigan to‘qimachilik matolariningning yong‘in-texnik xususiyatlarini o‘rganib olingan natijalar va ularning tahlili bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik matolari, yong‘in-texnik xususiyatlari, olovbardosh matolar, ximoya kiyimlari

Аннотация. В статье представлены результаты изучения пожарно-технических свойств текстильных тканей, используемых для огнестойкой защитной одежды, предлагаемой для использования на насосных станциях, и их анализ.

Ключевые слова: текстильные ткани, пожарно-технические характеристики, огнестойкие ткани, защитная одежда

Annotation: The article presents the results of studying the fire-technical properties of textile fabrics used for fire-resistant protective clothing, proposed for use at pumping stations, and their analysis.

Key words: textile fabrics, fire safety characteristics, fire-resistant fabrics, protective clothing

Kirish. Respublikamizda ishlab chiqarishdagi xavfli ishlab chiqarish omillarining kelib chiqish sabablarini o‘rganish, har bir sohada mehnat sharoitlari xavfsizligini ta‘minlash, og‘irlik darajasining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga muvofiq himoya kiyimlari bilan ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy mehnat jarayonida mehnat parametrlarini, shuningdek, innovatsion tashkiliy-texnik qarorlar va sanitariya-gigiyena tavsiyalarni ishlab chiqishda keng ko‘lamli islohatlar olib borilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida, xususan, “... aholi farovonligini ta‘minlash doirasida sanoat tarmoqlari ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan bugungi kunda mehnat xavfsizligini ta‘minlash, mehnat sharoitlari va ergonomik harakatlarni hisobga olgan holda ishchilarga beriladigan maxsus kiyimlarni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, maxsus kiyimlarning ekspluatatsiya ishonchililigini oshirish, sifatini ta‘minlash va xalqaro jahon standartlari darajasida maxsus kiyimlar bilan ta‘minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ISO 11611-2020 “Payvandlash va shunga o‘xshash ishlarda qo‘llaniladigan himoya kiyimlari” xalqaro standartining maqsadi payvandlash

va shunga o'xshash ishlarda foydalaniladigan kiyimlarga minimal ishlash talablarini ta'minlash kerak ekanligi aytilgan. Issiqlik ta'siri va olovdan to'liq himoyalash uchun bosh, yuz, qo'l va oyoqlarni mos individual himoya vositalari (IHV) yordamida himoyalash zarur, ba'zi hollarda nafas olish organlarini ham mos ravishda himoyalash talab qilinishi mumkin. Issiqlik va olovdan himoya qiluvchi kiyimlarni tanlash, foydalanish, parvarishlash va ta'mirlash bo'yicha ko'rsatmalar ISO/TR 2801:2007, hujjatida keltirilgan. Ushbu standart payvandlash va shunga o'xshash ishlarda foydalaniladigan himoya kiyimlariga tatbiq etiladi va ishchining tanasini, shu jumladan boshni (kapyuchonlar) va oyoqlarni (getrlar) himoya qilish uchun mo'ljallangan himoya kiyimlariga, shuningdek, dubulg'a osti qalpoqlari, fartuklar, yenglar va getrlar uchun minimal asosiy xavfsizlik talablari va sinov usullarini belgilaydi. Bu standart faqat ishchining boshini va oyoqlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan dubulg'a osti qalpoqlari va getrlarga tatbiq etiladi.

Asosiy qism. Respublikamizda olovbardosh materiallarni ishlab chiqish orqali yonuvchan mahsulotlarni yong'indan himoya qilish hozirgi davrning eng aktual masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan tarkibida selluloza bo'lgan qurilish materiallarining xususiyatlarini o'rganish va olingan natijalarni tahlil qilib, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahalliy xom-ashyolar asosida yonmaydigan yoki qiyin yonuvchan qurilish materiallarini ishlab chiqish masalari maqsad qilishgan [1]. Shu bois, laboratoriya sharoitida bir nechta tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Avvalo, respublikada chetdan import evaziga kirib kelayotgan tarkibida selluloza bo'lgan qurilish materiallari, ya'ni Rossiyaning Samara, Ufa va Krossnoyarskiy kabi shahar va tumanlarida ishlab chiqarilgan "MILA EUROPA TECHNOLOGY" asosida tayyorlangan DSP, DVP, OVP, FANERA, LDSP, LDVP, MDF, reka va tarket materiallari hamda Turkiya davlatida ishlab chiqarilgan Armstrongpotolog uchun qoplama materiallarining namunalari olib kelinib laboratoriya sharoitida sinovdan o'tkazilgan. Ular yuqorida keltirilgan materiallar namunalari GOST 12.1.044-89 «Пожаровзрыво-опасность веществ и материалов. Номенклатура показателей и методы их определения» standarti talablari asosida yasalgan "Uzstandart" agentligi tomonidan sertifikatlangan Modda va materiallarning qiyin yonuvchan va yonuvchanlik guruhlarini aniqlovchi "Keramik quvur" qurilmasi, "Tutun hosil qilish koeffitsientini aniqlash" qurilmasi va "Alanga tarqalish tezligini aniqlash" qurilmalarida sinovdan o'tkazishgan. O'tkazilgan tajribalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, chetdan kirib kelayotgan bunday materiallarini ishlab chiqarishda sifati har xil bo'lgan mahsulotlardan foydalanilmoqda. Demak, taklif etilayotgan olovbardosh himoya kiyimlarining yong'in-texnik xususiyatlarini o'rganish asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologiyasi va muhokamasi. Ma'lumki to'qimachilik matolarining issiqqabardoshligini oshirish chog'ida paxta tolasi tarkibidagi selluloza o'z tarkiblaridan holis bo'ladi. Issiqqabardoshlik xossasini berish uchun dastlab tolalar yog'lovchi moddalardan, yigirish jarayonida foydalanilgan ohorlovchi moddalardan tozalaniladi. Bunda mato tarkibiga kiruvchi har bir tola

turiga mos tarzda to'qimachilik matolarining issiqqabardoshligini oshirish chog'ida o'ziga xos ishlov oladi. Shuning uchun ham turli tolalar aralashmasidan tayyorlangan matolarning to'qimachilik matolarining issiqqabardoshligini oshirish murakkabdir. Ushbu jarayonlarda mato tolasi kimyoviy eritmalar (ishqoriy, kislotali va oksidlovchili) ta'sirida ishlov oladi, issiqqabardoshligini oshirish maqsadida foydalanilayotgan antipirenlar yaxshi shimilishi va tola tarkibiga mustahkamlanishi uchun esa bug'lanadi yoki havo muhitida yuqori haroratda qizdiriladi. Shuningdek, kimyoviy moddalar ta'siri ostida yuqori haroratda kechadi, bu jarayon mexanik ta'sir bilan yakunlanishi mumkin. Shuning uchun to'qimachilik matolarining issiqqabardoshligini oshirish chog'ida mato mustahkamligini saqlab qolish muhim vazifa hisoblanadi, bunga erishish uchun jarayonning rasional sharoitini ta'minlash va shu orqali yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish talab qilinadi. Bunda har bir jarayon mexanizmini o'rganish va foydalanilayotgan muhit ta'sirida tola strukturasida kechayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish zarur bo'ladi. To'qimachilik matolarining issiqqabardoshligini oshirish chog'ida matolarning sifat ko'rsatkichlari, ishlov olgan tolaning mustahkamligi, ushbu toladan to'qilgan matoning havo o'tkazuvchanligi, hamda ishqalanishga chidamliligi o'rganiladi. Sinov jarayonida turli xil to'qima matolariga aralashma ta'sir ettirilganda quyidagi natijalar olindi (2.-jadval).

1.-jadval

To'qima turi	Aralashmani mato yuzasiga ta'siri	Matoning chiziqliy zichligi	Egilish darajasi	To'qima zichligi
To'quvchilik	ijobiy	320	60°	310
Trikotaj	o'rta	220	180°	180
Noto'qima	o'rta	180	110°	140
O'ramli	koniqarli	240	90°	120
Tafting	salbiy	-	-	-

2.-jadval

Issiqqabardosh materiallarni yong'inbardoshlik xususiyati tadqiqi

№	Namuna o'lchami mm	Namuna massasi, mg		Massa yo'qotilishi, %	Alanga ta'sir vaqti, s	Yonish vaqti, s	Izoh
		Oldin	keyin				
Rezina qo'lqop							
Namuna	2,8 x 10	2,85	-	100	30		yondi
Appretlash usuli orqali olingan issiqqabardosh to'qima	2,8 x 10	2,4	2,4	9	30	-	yonmadi
Trikotaj matosiga ishlov berilgan	2,8 x 10	2,7	2,6	7	30	-	yonmadi
Tanda iplariga ishlov berilgan, appretlangan	2,8 x 10	2,8	2,4	7	30	-	yonmadi

GOSTda keltirilgan talab bo'yicha sinovlar o'tkazilgandan keyin quyidagi shartlar bajarilsa;

- gazlama yuzasi yoqilganda sinovdan o'tkazilgan har qanday namunada qoldiq alangalanib yonish vaqti 5 s dan ortiq bo'lsa;
- gazlama yuzasi yoqilganda sinovdan o'tkazilgan har qanday namunada uning yonishi chekkalaridan birigacha etib borsa;
- sinovdan o'tkazilgan har qanday namunaning ostidagi paxta yonsa;
- har qanday namunada yuzadan yoki chekkadan yoqilganda yoqish nuqtasidan 100 mm dan ortiq masofaga tarqaladigan material yuzasidagi momiqning yonishi kuzatilganda;

alanga namunaning yuzasidan yoki chekkasidan ta'sir qilinganda sinovdan o'tkazilgan har qanday namunada o'rtacha 150 mm dan oshiq kuygan qismi hosil bo'lganida, gazlama (noto'qima mato) engil alangalanuvchan deb baholanadi. GOSTda keltirilgan talab bo'yicha sinovlar o'tkazilgandan keyin kuygan qismning uzunligi o'lchab olindi va standart talablari bo'yicha tekshirildi. Olingan natijalar 3.-jadvalda keltirilgan.

3.-jadval

Issiqqabardosh matolarni alangalanishga, barqaror yonishga qobiliyatlarini aniqlab olingan kattaliklar

Mato turi	Namuna olovdan olingandan keyin o'lchangan kattaliklar		Namunaning kuygan qismi uzunligi, sm	Olovbardoshligi
	qoldiq yonish vaqti, s	qoldiq cho'g'lanish vaqti, s		
Namuna	14	22	uzunligining 0,67 qismidan ko'p	issiqqabardosh emas
Appretlash usuli orqali olingan issiqqabardosh to'qima	1	2	uzunligining 0,33 qismidan kam	issiqqabardosh
Trikotaj matosiga ishlov berilgan	1	2	uzunligining 0,5 qismidan kam	issiqqabardosh
Tanda iplariga ishlov berilgan, appretlangan	1	1	uzunligining 0,33 qismidan kam	issiqqabardosh

Issiqqabardosh matolarni texnik ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar

Mato turi	Olingan ma'lumotlar
Namuna	Sinov boshlangandayoq mato yondi.
Appretlash usuli orqali olingan issiqqabardosh to'qima	Sinovdan so'ng namuna maydalanib ketdi. Tutun ajralishi talabga qisman javob beradi. Namuna to'la kulga aylandi.
Trikotaj matosiga ishlov berilgan	Sinovdan so'ng namuna kulga aylanmadi Tutun ajralishi talabga javob beradi. Qo'lga olganda ham maydalanmadi.
Tanda iplariga ishlov berilgan, appretlangan	Sinovdan so'ng namuna kulga aylanmadi, lekin qo'l tegsa mo'rtligidan maydalanib ketdi. Tutun ajralishi talabga qisman javob beradi.

Kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki, tavsiya etiladigan issiqqabardosh matolar alangalanuvchanligi bo'yicha tekshirilganda talabga javob beradi, lekin matoning cho'g'lanishi hamda tutashi natijasida matodan ajraladigan tutun zaharli bo'lsa, insonga salbiy holatlarni keltirib chiqaradi.

Issiqqabardosh to'qimachilik materiallari yonish mahsulotlarining zaharliligi bo'yicha guruhlar GOST 12.1.044-89 me'yoriy hujjati talablari asosida tayyorlangan va O'zDavStandart agentligi tomonidan sertifikatdan o'tkazilgan "Qattiq modda va materiallarda tutun hosil qilish koeffisientini aniqlash" qurilmasi yordamida tutash va yonish rejimlarida modda va materiallarning tutash qobiliyati aniqlandi.

Tavsiya etilayotgan kompozisiya bilan ishlov berilgan matoni sinovdan o'tkazishda Yong'in xavfsizligi institutining Ilmiy-tekshirish markazi laboratoriyasida GOST 28157-98 "Plastmassa. Modda va materiallarning alanga tarqalish tezligini aniqlash" qurilmasida matoning issiqqabardoshlik xossasi alangalanishga, barqaror yonishga qobiliyatlarini aniqlanib yuqorida ko'rsatilgan shartlar kuzatilmaganligi sababli, material qiyin alangalanuvchan deb baholandi.

Issiqqabardosh matolarning asosini tashkil etgan yong'in yopg'ichlari, issiqqabardosh himoya vositalari yonmaslik bilan bir qatorda to'qimachilik matolariga qo'yiladigan bir qancha talablarga javob berishi kerak. Issiqqabardosh to'qimachilik matolariga qo'yiladigan talablarga javob berilishi, undan standart asosida foydalanish imkonini beradi.

Tanda iplariga ishlov berilgan, appretlash orqali olingan issiqqabardosh matoning fizik-mexanik xususiyatlari. Xulosa.

№	Ishqalanishg a chidamliligi, davrlar soni	Havo o'tkazuvchanlik koeffisienti, sm/m², s	Cho'zilishdagi uzayishi, N	Uzish kuchi, N
Namuna	32,8	195	147	152
Ishlov olgan mato	31,7	192	149	150

O'zbekiston Respublikasi Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy tadqiqot institutining maxsus laboratoriyasida GOST 12.1.044-89 me'yoriy hujjati talablari asosida tayyorlangan va O'zDavStandart agentligi tomonidan sertifikatdan o'tkazilgan "Qattiq modda va materiallarda tutun hosil qilish koeffisientini aniqlash" qurilmasidan foydalanib olingan qiymatga ko'ra, tanda va arqoq iplariga ishlov berilib to'qilgan issiqqabardosh mato T1 (oz tutash qobiliyatiga ega bo'lgan) guruhiga mos keladi (qiymat 50 dan kichik bo'lganda oz tutash qobiliyatiga ega hisoblanadi) va yong'in xavfsizligi talablariga javob beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ф.Ф. Хамидуллаев., М. Зокирова., О.М. Йулдошева "Совершенствование вопросов организации работы по охране труда на промышленных предприятиях" "Paxta tozalash, to'qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish texnika-texnologiyalarni modernizatsiyalash sharoitida iqtidorli yoshlarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalari" mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjuman TOPLAMI Toshkent-2022.
2. Ф.Ф. Хамидуллаев., О.М. Йулдошева, М.Р. Досчанов "Фуқаро авиацияси соҳасида меҳнат муҳофазаси масалалари" "Ёнғин-портлаш хавфсизлиги" илмий-амалий электрон журнал №2 (11), 2023.
3. R.Bo'riyev, Q.Jumaniyazov, A.Salimov "Paxtani dastlabki ishlash mashinalaridan foydalanish".T.: "Paxtasanoat ilmiy markazi" - 2015y.16-17-b.
4. E.Z.Zikriyeyev "Paxtani dastlabki qayta ishlash" O'quv qo'llanma T.: Mehnat, 2002y. – 405 bet.
5. И.Герман, Физика организма человека. Пер. с англ.: Научное издание / И.Герман Долгопрудный: Издательский Дом «Интеллект», 2011г.–363-367 с.

UO'K:159.9:612:351.74

Mardonov A.A. t.f.f.d. (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

Fuqaro muhofazasi instituti

Atadjanov R.M., Xorazm viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi

Norova R.N., O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

Ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti

G'AVVOS-QUTQARUVCHILARNING RUHIY VA FIZIOLOGIK BARQARORLIGINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOTLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada g'avvos-qutqaruvchilarning ruhiy-fiziologik barqarorligini aniqlash bo'yicha barokameraga kirishdan oldin va barokamera sharoitida samaradorligi va aniqlilik darajalari Landolt halqalari yordamida o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari, tahlili va xulosalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Landolt halqalari, samaradorlik, aniqlilik, ruhiy-fiziologik barqarorlik, salbiy omillar, barokamera, matematik modellash, gigiyenik meyor.

Аннотация: В статье представлены результаты, анализ и выводы исследований, проведенных с использованием колец Ландольта для определения психофизиологической устойчивости водолазов-спасателей перед входом в барокамеру и в барокамере.

Ключевые слова: кольца Ландольта, эффективность, точность, психофизиологическая устойчивость, неблагоприятные факторы, барокамера, математическое моделирование, гигиенический норматив.

Annotation: The article presents the results, analysis and conclusions of studies conducted using Landolt rings to determine the psychophysiological stability of rescue divers before entering a pressure chamber and in the pressure chamber.

Key words: Landolt rings, efficiency, accuracy, psychophysiological stability, adverse factors, pressure chamber, mathematical modeling, hygienic standard.


O'zbekiston o'zining o'ziga xos geografik joylashuvi, suv havzalarining kichikligi, loyqaligi va ularda yorug'likning yomonligi jihatidan gigiyenik meyorlarga mos kelmasligi, suv harorati va oqimining keskin o'zgarishlari kabi salbiy omillari bilan ajralib turadi. Ushbu salbiy omillar bilan bir qatorda, g'avvos-qutqaruvchilarimiz suvda qutqaruv ishlarini olib borish davomida bir nechta xavflarga duch kelishi mumkin. G'avvoslik ishlarining sharoiti va ta'minoti, maxsus asbob-anjom va texnikalar, suv muhiti (loyqaligi, oqimi, harorati va boshqalar), dekompensatsiya tadbirlarining buzilishi hamda g'avvos-qutqaruvchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik holati bu xavflar bilan bog'liqdir.

Bunday salbiy omillar natijasida g'avvos-qutqaruvchilarimiz suv ostida qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish jarayonida noqulay vaziyatlarga tushishi, hayoti va sog'lig'i xavf ostida qolishi mumkin. Ushbu xavflar natijasida g'avvos-qutqaruvchilar suv ostida qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish jarayonida noqulay vaziyatlarga tushishi va hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilishi mumkin, shuning uchun bunday sharoitlarda kasbiy faoliyatning samaradorligi va

xavfsizligini ta'minlash uchun g'avvos-qutqaruvchilarning kasbiy, ruhiy va jismoniy tayyorgarligini oshirish tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

Shu maqsadda, barokamera sharoitda, ya'ni barokamarega kirishdan oldin va barokamera sharoitda bosim ostida Landolt halqalari yordamida 10-nafar g'avvos-qutqaruvchilar bilan sinovlar o'tkazildi.

Sinovlarni o'tkazish uchun ishtirokchilarga Landolt halqalari blanklari beriladi. Ishtirokchilar imkon qadar qisqa vaqt ichida blankdagi halqalarni ko'zdan kechirib, halqalardagi ma'lum bir yo'nalishdagi uzilishlarni belgilab chiqishi zarur bo'ladi. Sinovni boshlashdan oldin to'g'ri belgilash uchun blankning pastki qismida "Namuna qatori" keltirilgan (1-rasm).



**1-rasm. Landolt halqalari yordamida faoliyat samaradorligini aniqlash.
Sinovlarni o'tkazish va natijalarni tahlil qilish tartibi.**

G'avvos-qutqaruvchilar bilan barokameraga kirishdan oldin va barokamera sharoitida o'tkazilgan sinovlarning natijalari 1 va 2 - jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

**G'avvos-qutqaruvchilar bilan barokameraga kirishdan oldin
Landolt halqalari yordamida olingan sinov natijalari**

T/r	G'avvos-qutqaruvchi	Qt	Nt	Rt	Kp	At	Ta	Pmax-Pmin
1	G'-Q	150	30	34,4	241	0,35	22,5	21-4.1
2	G'-Q	167	13	29,8	188	0,9	22,2	40-20
3	G'-Q	165	15	29,9	210	0,9	0	38-18,9
4	G'-Q	156	24	28,8	78	0,9	0	36-22,5
5	G'-Q	139	51	19,6	122	0,76	0	24,8-15,2
6	G'-Q	106	74	6,0	550	0,46	43,5	9,6-2,4
7	G'-Q	152	32	36,4	243	0,37	24,5	23-5.1
8	G'-Q	165	41	27,8	186	0,8	21,2	38-19
9	G'-Q	168	17	31,9	200	0,9	0	40-19,7
10	G'-Q	158	26	29,8	80	0,9	0	38-23,5

2-jadval


**G'avvos-qutqaruvchilar bilan barokamera sharoitida bosim ostida
Landolt halqalari yordamida olingan sinov natijalari**

T/r	G'avvos-qutqaruvchi	Qt	Nt	Rt	Kp	At	Ta	Pmax-Pmin
1	G'-Q	120	42	24	201	0,24	18,2	17-3.2
2	G'-Q	127	25	25,4	156	0,7	17,6	30-15
3	G'-Q	125	28	25	172	0,7	0,5	29-15,4
4	G'-Q	124	37	24,8	54	0,6	0,6	24-15,2
5	G'-Q	107	72	15,2	92	0,52	0,5	18,2-11,3
6	G'-Q	79	85	4,0	420	0,31	28,2	6,1-1,8
7	G'-Q	122	46	24,4	184	0,25	16,7	19-4,3
8	G'-Q	125	54	25,0	136	0,6	17,1	26-14
9	G'-Q	128	37	25,6	164	0,7	0,5	32-15,6
10	G'-Q	118	41	23,6	52	0,75	0,6	29-18,4

Landolt halqalari yordamida g'avvos-qutqaruvchilarning samaradorlik darajasining natilalari keltirilgan (2 va 3 -rasmlar).




2-rasm. Landolt halqalari yordamida g'avvos-qutqaruvchilarning samaradorlik darajasining chizmasi.




3-rasm. Landolt halqalari yordamida g'avvos-qutqaruvchilarning samaradorlik darajasining natilalari diagrammasi.

Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, 10 nafar g'avvos-qutqaruvchilarning barokameraga kirishdosh oldin samaradorlik darajasining o'rtacha ko'rsatgichi 26,84 ga, barokamera sharoitida bosim ostida samaradorlik darajasining o'rtacha ko'rsatgichi 21,7 ga teng bo'lsa, 5 - va 6 - g'avvos-qutqaruvchilarning ko'rsatgichlari o'rtachadan past bo'lib, Landolt halqalari yordamida o'tkazilgan sinov natijalari bo'yicha samaradorlik darajasi past ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, barokameraga kirishdan oldin o'tkazilgan sinov natijalari barokamera sharoitida bosim ostida o'tkazilgan natijalariga ko'ra, samaradorlik darajasi 30 foizgacha, o'rtacha 22 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Landolt halqalari yordamida g'avvos-qutqaruvchilarning o'rtacha aniqlik darajasining natijalari keltirilgan (4 va 5 -rasmlar).



4-rasm. Landolt halqalari yordamida g'avvos-qutqaruvchilarning o'rtacha aniqlik darajasining chizmasi.



5-rasm. Landolt halqalari yordamida g'avvos-qutqaruvchilarning o'rtacha aniqlik darajasining diagrammasi.

Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, 10 nafar g'avvos-qutqaruvchilarning barokameraga kirishdan oldin aniqlilik darajasining o'rtacha ko'rsatgichi 0,73 ga, barokamera sharoitida bosim ostida aniqlilik darajasining o'rtacha ko'rsatgichi 0,51 ga teng bo'lsa, 1, 6 va 7 - g'avvos-qutqaruvchilarning ko'rsatgichlari o'rtachadan past bo'lib, Landolt halqalari yordamida o'tkazilgan sinov natijalari bo'yicha aniqlilik darajasi past ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, barokameraga kirishdan oldin o'tkazilgan sinov natijalari barokamera sharoitida bosim ostida o'tkazilgan natijalariga ko'ra, aniqlilik darajasi 34 foizgacha, o'rtacha 25,5 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar o'rnida shuni qayd etish lozimki, g'avvos-qutqaruvchilarning kasbiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan mutaxassisning umumiy va maxsus kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasiga bog'liq. Xorijiy davlatlarning mutaxassislarining fikriga ko'ra, shaxsiy tarkibning jangovar shayligining 60% organizmning psixofiziologik va funksional zahira holatiga, faqat 30% texnik vositalarga bog'liq ekanligini inobatga olib, g'avvos-qutqaruvchilarning kasbiy (kasbga tanlash, jismoniy, ruhiy, psixofiziologik va b.q.) tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

G'avvos-qutqaruvchilar bilan barokamera sharoitida o'tkazilgan mashqlar davomida organizmning yuqori bosimga chidamliligi va ruhiy tayyorgarligining ortib borishi hamda bunday mashg'ulotlar yordamida g'avvos-qutqaruvchilarni yuqori bosim ta'sirlariga ko'nikmalarini hosil qilishi bilan erishilishi hamda barokamera sharoitida g'avvos-qutqaruvchilarning chuqurlikka tushish imkoniyatlarini aniqlash, g'avvos-qutqaruvchilarni sohaga tizimli tayyorgarlik sifatini belgilovchi mezonlarining koeffitsiyenti asosida matematik modellashtirish ketma-ketligini belgilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. РД 31.84.01-90 "Единые правила безопасности труда на водолазных работах" Часть II "Медицинское обеспечение водолазов"(утв.Министерством здравоохранения СССР 18 ноября 1991 г.) стр. 4,19.28.
2. Mardonov A.A, Kurbanbayev Sh.E., "G'avvos-qutqaruvchilar mehnat sharoitlari va faoliyati samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar", "Fan, muhofaza, xavfsizlik" ilmiy-amaliy jurnali, 2022 yil, 2-son 76-82 b.
3. Mardonov A.A. "Qutqaruvchi-g'avvoslarning faoliyati samaradorligini baholash va oshirish usullari" O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutining "Fan, muhofaza, xavfsizlik" ilmiy-amaliy jurnali, 2023 yil, 2-son 143-147 b.
4. Mardonov A.A., Kurbanbayev Sh.E., Barokamera sharoitida qutqaruvchi-g'avvoslarni suv ostida ishlash va suv ostida ishlash chuqurligini aniqlash bo'yicha bilan tadqiqotlar, "Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami, 28.09.2023 y.FVV Akademiyasi,164-169 b

5. Nakayama H., Shibayama M., Yamami N., Togawa S., Takahashi M., Mano Y. "Decompression sickness and recreational scuba divers" August 2003 Emergency Medicine Journal 20(4):332-4 DOI:10.1136/emj.20.4.332
6. SSSR Sog'liqni saqlash vazirligi gigiyena suv transporti institutining 199/10-sondagi 03.06.1986 yildagi xati, SSSR Sog'liqni saqlash vazirligi va SSSR neft va gaz sanoati vazirligining 02.01.1990 yildagi qo'shma xati. 29.01.1990 yil, 2-qism.
7. Van Wijk CH, Meintjes WAJ. Распространенность синдрома дефицита внимания/гиперактивности среди коммерческих дайверов в Южной Африке. Дайвинг и гипербарическая медицина. 30 июня 2020 г.; 50 (2): 164-167. Doi: 10.28920 / dhm 50.2.164-167. PMID: 32557419;
8. Блощинский И.О. О психофизиологических показателей в оценке работоспособности, утомления и переутомления моряков/ И.А.Блощинский, А.Ф.Киселев, В.Н.Максименко// Воен.-мед. журнал-2002. №10-с. 58-65.
9. Бовин Б.Г., Марьин М.И. и др. Экстремальная психология в особых условиях деятельности / под науч. ред. Б.Г. Бовина, А.В. Кокурина, А.М.
10. Елисеев О.П. Оценка умственной работоспособности по Э.Крепелину. Практикум по психологии личности. 2-е изд. СПб: Питер; 2003: 199–200.
11. Казанков В.В. "Психологическая устойчивость специалиста МЧС России как фактор безопасности его труда", Педагогические и психологические проблемы высшей школы, стр. 127-131.
12. Павлов Б.Н. Физиология индифферентных газов, гипербарическая физиология: современное состояние и перспективы развития. Индифферентные газы в водолазной практике, биологии и медицине: материалы Всеросс. конф. 15–16 нояб. 1999. М.: Слово; 2000: 116–21.
13. Семенцов В.Н., Иванов И.В., "Функциональные тесты для профессионального отбора водолазов и кессонщиков", ФГАОУ во «Первый Московский государственный медицинский университет им. И.М. Сеченова» Минздрава России (Сеченовский Университет), ФГБУ «Государственный научно-исследовательский испытательный институт военной медицины», Том 38, № 3 (2019), Стр. 207-216.
14. Следков А.Ю., Довгуша В.В. Особенности функционирования организма человека в гипербарической среде. СПб; 2003.

UO‘K 614.84/355

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI TIZIMIGA SUN’IY INTELLEKT VA ROBOTOTEXNIKALARNI JORIY ETISHNING ILMIY- ASOSIY TAMOIYILLARI VA AMALIY ISTIQBOLLARI

J.R. Eshbayev, Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
D.S. Soatboyev, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) va robototexnika texnologiyalarini favqulodda vaziyatlarni oldini olish, xavfni erta aniqlash, monitoring va qutqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishda qo‘llash istiqbollari yoritiladi. Jahon tajribasi va O‘zbekiston sharoitidagi amaliy imkoniyatlar o‘rganilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tizimiga SI va robototexnikani bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Maqola ilmiy-metodik yondashuv asosida tayyorlangan.

Kalit so‘zlari: sun’iy intellekt, robototexnika, texnologiyalar, favqulodda vaziyatlar, qutqaruv, monitoring, xavf, avtomatlashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются перспективы применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) и робототехники в предотвращении чрезвычайных ситуаций, раннем выявлении рисков, мониторинге и автоматизации спасательных процессов. На основе изучения мирового опыта и практических возможностей в условиях Узбекистана разрабатываются предложения по поэтапному внедрению ИИ и робототехники в систему Министерства по чрезвычайным ситуациям (МЧС). Статья подготовлена на основе научно-методического подхода.

Ключевые слова: искусственный интеллект, робототехника, технологии, чрезвычайные ситуации, спасение, мониторинг, риск, автоматизация.

Annotation: This article explores the prospects of utilizing artificial intelligence (AI) and robotics technologies for emergency prevention, early risk detection, monitoring, and automation of rescue operations. Based on an examination of global experience and practical opportunities within the context of Uzbekistan, the article develops proposals for the gradual implementation of AI and robotics in the system of the Ministry of Emergency Situations (MES). The study is conducted using a scientific and methodological approach.

Key words: artificial intelligence, robotics, technology, emergencies, rescue, monitoring, risk, automation.

So‘nggi yillarda tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar soni keskin oshmoqda. Iqlim o‘zgarishi, sanoatning jadal rivojlanishi, transport-kommunikatsiya tizimlarining kengayishi, urbanizatsiya jarayonlari xavflarni yanada murakkablashtirmoqda. Shu bois dunyo mamlakatlarida favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirishning innovatsion vositalaridan keng foydalanilmoqda.

Sun’iy intellekt (SI) va robototexnika ushbu yo‘nalishda eng samarali texnologiyalardan biri bo‘lib, ular xavflarni aniqlash, tahlil qilish, real vaqt rejimida monitoring yuritish, qutqaruv jarayonlarini boshqarish, resurslar taqsimotini optimallashtirish kabi ko‘plab vazifalarni avtomatlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida favqulodda vaziyatlar tizimini raqamlashtirish bo‘yicha katta ishlar

amalga oshirilmoqda. Ammo SI va robototexnika kabi ilg'or texnologiyalarni tizimga to'liq joriy qilish hali oldinda turgan strategik vazifadir.

2. SUN'IY INTELLEKTNING FAVQULODDA VAZIYATLAR TIZIMIDAGI ROLI

2.1. Xavflarni erta aniqlash va bashoratlash

SI yirik axborot massivlarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Meteorologik monitoring, seysmik stansiyalar, daryo suv sathi datchiklari, o'rmon yong'inlari uchun tutun sensorlari, videokuzatuv kameralari ma'lumotlari SI algoritmlari yordamida qayta ishlanib, xavflar erta aniqlanadi.

SI asosidagi modellarning afzalliklari:

favqulodda holat yuzaga kelishidan bir necha daqiqa yoki soat oldin ogohlantirish imkoniyati;

anomaliya deteksiyasi orqali gaz sizishi, tutun paydo bo'lishi, haroratning keskin ko'tarilishini avtomatik aniqlash;

toshqin, bo'ron, yer ko'chishi kabi tabiiy ofatlar rivojlanishini matematik modellashtirish.

2.2. Qutqaruv operatsiyalarini boshqarish

Favqulodda vaziyatlarda vaqt eng qimmat resursdir. SI yordamida:

- qutqaruv brigadalarining optimal marshrutlari aniqlanadi;
- zarar ko'rgan hududlar 3D xaritalashtiriladi;
- dronlardan olingan tasvirlar asosida jabrlanganlar joylashuvi aniqlanadi;
- har bir brigadaga yuklama avtomatik tarzda taqsimlanadi.

Bu jarayonlar qutqaruv operatsiyalarining samaradorligini 30–50% ga oshirishi mumkin.

2.3. Aholini ogohlantirish tizimlari

SI yordamida:

- geolokatsiya asosida hududiy SMS ogohlantirishlar;
- aholini evakuatsiya qilish uchun optimal yo'nalishlarni taklif etish;
- telekanal, radio va internet orqali avtomatlashtirilgan ogohlantirish;
- xavfli hududlar bo'yicha aqlli tahliliy xaritalar yaratish.

kabi imkoniyatlar yaratiladi.

Bu tizimlar aholining xavfsizligini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradi.

3. ROBOTOTEXNIKANING FAVQULODDA VAZIYATLARDA QO'LLANILISHI

3.1. Qidiruv-qutqaruv robotlari

Qutqaruv robotlari quyidagi imkoniyatlarga ega:

- qulagan binolarga inson kirishi mumkin bo'lmagan zonalarda razvedka o'tkazish;
- termal kamera orqali tirik odamlarni aniqlash;
- gaz, tutun, radioaktiv moddalarning miqdorini o'lchash;
- 3D skanerlash orqali bino konstruksiyasining holatini aniqlash.

Bunday robotlar inson hayotiga xavf tug'diruvchi vaziyatlarda juda muhim.

3.2. Dronlar (UUA)

Dronlar favqulodda vaziyatlarda eng tezkor texnik vosita sifatida quyidagilarni amalga oshiradi:

- zararlangan hududlarni yuqoridan monitoring qilish;
- yong'in tarqalishini aniqlash va prognozlash;
- suv toshqinlarini xaritalash;
- issiqlik kamerasi orqali jabrlanganlarni aniqlash;
- aloqa vositalari yoki dori yetkazish.

3.3. Suv osti robotlari

Suv osti robotlari cho'kkan transport vositalari yoki insonlarni qidirishda, suv osti inshootlarining texnik holatini o'rganishda qo'llaniladi.

3.4. Yong'in o'chirish robotlari

Kimyoviy moddalar, yong'inga chidamli omborlar, neft-gaz sanoati obyektlari kabi yuqori xavfli zonalarda masofadan boshqariladigan robotlar:

- yuqori haroratda ishlay oladi;
- portlash xavfi mavjud hududlarda xavfsizlikni ta'minlaydi;
- yong'inni masofadan turib o'chiradi.

4. O'ZBEKISTON SHAROITIDA SI VA ROBOTOTEXNIKANI JORIY ETISH MODEL

4.1. Yagona raqamli monitoring markazi

FVV tizimida yagona "Aqlli monitoring va boshqaruv markazi" tashkil etilishi lozim. U:

- IoT datchiklaridan ma'lumotlarni yig'adi;
- SI modellarini ishga tushiradi;
- geografik axborot tizimlarini boshqaradi;
- viloyat boshqarmalariga tezkor buyruqlar yuboradi.

4.2. IoT (Internet of Things – Internet jihozlari) infratuzilmasi va katta ma'lumotlar bazasi

IoT tizimi quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- suv sathi sensori;
- shamol tezligi va bosim datchiklari;
- yong'in sensori;
- videokuzatuv kameralar tarmog'i;
- seysmik monitoring qurilmalari.

15. Н. Долчинков. (2024). Построение системы мониторинга загрязнения водных объектов отходами. *ETR*, 1, 136–141. <https://doi.org/10.17770/etr2024vol1.7989>
16. Арипходжаева, М. Б., Рузиев, С. Т., & Фатхидинов, А. У. (2020). Использование современных технологий в совершенствовании обеспечения безопасности личного состава в кризисных и экстремальных ситуациях. *Организационный комитет конференции*, т. 8, 14.
17. Cibis, T., Groh, B. H., Gattermann, H., Leutheuser, H., & Eskofier, B. M. (2015). Wearable Real-Time ECG Monitoring with Emergency Alert System for Scuba Diving. In *Proceedings of the Annual International Conference of the IEEE Engineering in Medicine and Biology Society (EMBC)*. <https://doi.org/10.1109/EMBC.2015.7319777>
18. Beatty, P., Evans, W., Gravelyn, S., Tumperi, M., & Daubon, D. (2024). Physiological monitoring to prevent diving disorders: Biomarkers and real-time assessment. *Frontiers in Physiology*, 15, 1517361. <https://doi.org/10.3389/fphys.2024.1517361>

UO'K 614.84

ZAMONAVIY DRONLARDAN FAVQULODDA VAZIYATLARDA EVAKUATSIYA QILISHDA FOYDALANISH

Suleymanov A.A. t.f.d. (DSc) prof., Nasirova S.Sh., Fayzullayev S.X., Xolov Sh.Sh.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dronlardan favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya jarayonini tashkil etishda foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Dronlarning kuzatuv, axborot uzatish, insonlar joylashuvini aniqlash va xavfsiz yo'nalishlarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT) va geoinformatsion tizimlar (GIS) integratsiyasi evakuatsiya samaradorligini oshiruvchi zamonaviy texnologik yo'nalish sifatida baholangan. Tadqiqotda xalqaro tajriba, texnik imkoniyatlar va O'zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning ilmiy asoslari hamda rivojlanish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: dron texnologiyalari, favqulodda vaziyatlar, evakuatsiya tizimi, monitoring, sun'iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT), geoinformatsion tizimlar (GIS), xavfsizlikni boshqarish, texnik integratsiya, evakuatsiya samaradorligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования современных беспилотных летательных аппаратов (дронов) при организации эвакуации населения в чрезвычайных ситуациях. Раскрыта роль дронов в наблюдении, передаче информации, определении местоположения людей и формировании безопасных маршрутов эвакуации. Интеграция технологий искусственного интеллекта (AI), Интернета вещей (IoT) и геоинформационных систем (GIS) оценена как ключевое направление повышения эффективности эвакуационных процессов. В исследовании проанализированы международный опыт, технические возможности и научные основы внедрения данных технологий в практику, а также их потенциал дальнейшего развития в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: технологии дронов, чрезвычайные ситуации, система эвакуации, мониторинг, искусственный интеллект (AI), Интернет вещей (IoT), геоинформационные системы (GIS), управление безопасностью, техническая интеграция, эффективность эвакуации.

Annotation: This article examines the possibilities of using modern unmanned aerial vehicles (drones) in organizing population evacuation during emergency situations. The study highlights the role of drones in surveillance, data transmission, identification of people's locations, and determination of safe evacuation routes. The integration of Artificial Intelligence (AI), the Internet of Things (IoT), and Geographic Information Systems (GIS) is evaluated as a key technological direction for improving the efficiency of evacuation processes. The research analyzes international experience, technical capabilities, and the scientific basis for implementing these technologies in practice, as well as their potential for further development under the conditions of Uzbekistan.

Key words: drone technologies, emergency situations, evacuation system, monitoring, artificial intelligence (AI), Internet of Things (IoT), geographic information systems (GIS), safety management, technical integration, evacuation efficiency.

Kirish. So'nggi yillarda tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning ko'payishi evakuatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. An'anaviy evakuatsiya tizimlari inson omiliga yuqori darajada bog'langanligi sababli, tezkor axborot almashinuvi, xavf zonalarini aniqlash va yo'nalishlarni rejalashtirishda kechikishlar yuzaga keladi. Ushbu muammolarga

javoban zamonaviy texnologiyalar, xususan **uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA)** yoki **dronlar**, evakuatsiya jarayonlarida samarali yechim sifatida qo'llanilmoqda. Dronlar termal kamera, GPS moduli, sun'iy intellekt (AI), **IoT** va **GIS** tizimlari bilan birgalikda ishlaganda, aholining joylashuvi, xavf darajasi va evakuatsiya yo'nalishlarini real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. So'nggi tadqiqotlarda (ResearchGate, 2023; IEEE Access, 2022) dronlardan foydalanish natijasida qidiruv-qutqaruv operatsiyalarining tezligi va aniqligi 30–40 % ga oshgani qayd etilgan. Shu sababli, dron texnologiyalarini favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tizimiga joriy etish masalasi bugungi kunda nafaqat texnik, balki strategik ahamiyat kasb etmoqda.


Favqulodda vaziyatlarda uchuvchisiz uchish apparatlaridan (UUA yoki dronlardan) foydalanish bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlash va evakuatsiya jarayonlarini boshqarishda eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dron texnologiyalari inson ishtirokini minimal darajaga tushirib, real vaqt monitoringi va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. **Bushnaq va boshqalar (2023)** tomonidan chop etilgan *“Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) for Disaster Management”* nomli tadqiqotda dronlarning zilzila, yong'in va suv toshqinlari kabi vaziyatlarda qo'llanishi tahlil qilinib, ularning 3D xaritalash, tezkor kuzatuv va qutqaruv operatsiyalaridagi ustunliklari isbotlangan. Shu kabi **Pal (2024)** tomonidan e'lon qilingan *“In-depth Review of AI-enabled UAV Systems”* ishida dronlarning sun'iy intellekt (AI) bilan integratsiyasi orqali ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va xavf darajasini baholash samaradorligi o'rganilgan.

1-jadval.

Dron texnologiyalarining favqulodda vaziyatlardagi qo'llanilish samaradorligi.

No	Qo'llanilgan texnologiya	Asosiy funksiyasi	Samaradorlik ko'rsatkichi	Manba
1	AI asosidagi dron koordinatsiyasi	Odamlar oqimini tahlil qilish va evakuatsiya yo'nalishlarini rejalashtirish	Axborot uzatish tezligi 1,5 barobar oshgan, aniqlik darajasi 90 %	IEEE Access, 2022
2	Termal kamerali dronlar	Issiqlik nurlanishi orqali insonlarni aniqlash	Kechasi aniqlash aniqligi 92 %, samaradorlik 40 % gacha oshgan	ScienceDirect, 2023
3	GIS integratsiyalashgan dron tizimi	Xavf zonalarini xaritalash va xavfsiz yo'nalishlarni aniqlash	Evakuatsiya vaqti 25–30 % gacha qisqargan	Springer, 2024
4	IoT asosida ishlovchi dron tarmog'i	Real vaqt ma'lumotlarini yig'ish va uzatish	Aloqa uzilishlari 60 % ga kamaygan, barqarorlik oshgan	MDPI Drones Journal, 2023

Ushbu jadval asosidagi grafikda har bir dron texnologiyasining samaradorlik ko'rsatkichlarini foizlarda taqqoslab ko'rsatadi.



Zhang va boshqalar (2025) tomonidan *Nature Scientific Reports* jurnalida chop etilgan “*Developing Real-Time IoT-Based Public Safety Alert and Emergency Response Systems*” ishida dronlar va IoT texnologiyalarining integratsiyasi orqali 95 % gacha aniqlikka ega bo'lgan tezkor ogohlantirish tizimi tajribaviy sinovdan o'tkazilgan. Bu yondashuvlar favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya jarayonini optimallashtirishda dronlar va IoT tarmoqlari o'zaro qanday ishlashi mumkinligini aniq ko'rsatib beradi. Ushbu manbalarga tayangan holda, tadqiqot metodologiyasi **tahliliy, taqqoslovchi va modellashtirish** usullariga asoslandi.



1-rasm. Dron yordamida Italiya Respublikasining Emilia-Romagna mintaqasida yuz bergan ko'chki hududini havodan monitoring qilish jarayoni (manba: European Commission, Copernicus Emergency Management Service, 2023).

Birinchi bosqichda xalqaro tajriba tizimli tarzda o'rganilib, O'zbekiston Respublikasining favqulodda vaziyatlar infratuzilmasi bilan solishtirildi. Ikkinchi bosqichda dron, AI va GIS texnologiyalarining integratsiyasi asosida **evakuatsiyani boshqarish modeli** ishlab chiqildi. Ushbu model dronlardan olinadigan ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, xavf zonalarini aniqlash va evakuatsiya yo'nalishlarini avtomatik tarzda yangilab borishni nazarda tutadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, AI bilan integratsiyalashgan dronlar an'anaviy qidiruv-qutqaruv tizimlariga nisbatan axborot almashinuvi tezligini 1,5 barobar oshirgan. *"AI-Driven Drone Mapping for Disaster Response"* (C. Journal, 2025) tadqiqotida bu yondashuv yordamida xavfli hududlarda aniqlik darajasi 90 % gacha yetgani va evakuatsiya jarayonining davomiyligi 30 % gacha qisqargani qayd etilgan. Biroq, bu texnologiyalarni keng joriy etishda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda: dronlarning parvoz davomiyligi, signal uzilishlari, ma'lumotlar xavfsizligi, hamda havo hududida harakatni muvofiqlashtirishga oid cheklovlar. Quyidagi takliflar ishlab chiqildi: **Dronlardan favqulodda vaziyatlarda foydalanish bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqish**, bunda AI, GIS va IoT texnologiyalarining integratsiyasi uchun yagona axborot tizimini yaratish zarur, **pilot loyihalar doirasida dron-evakuatsiya tizimini sinovdan o'tkazish**, ayniqsa yirik sanoat zonalar va yong'in xavfi yuqori hududlarda, **mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash**, dron tizimlari uchun dasturiy ta'minot va komponentlar ishlab chiqishda milliy salohiyatni kengaytirish, **kiberxavfsizlik choralari va ma'lumotlarni himoya qilish standartlarini ishlab chiqish**, chunki dronlar real vaqt rejimida ma'lumot almashuvchi ochiq tizimlardir, **favqulodda vaziyatlar xodimlari uchun raqamli kompetensiyalarni oshirish**, AI va dron texnologiyalarini boshqarish ko'nikmalarini amaliyotga kiritish orqali tizim samaradorligini oshirish, **akademik va amaliy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash**, turli ssenariylar asosida simulyatsion modellar ishlab chiqish va ularni baholash orqali yangi texnologik yechimlar yaratish.

Xulosa.

Yig'ilgan ilmiy manbalar tahlili va xalqaro tajribalarni o'rganish natijalariga ko'ra, uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) favqulodda vaziyatlarda aholini xavfsiz evakuatsiya qilishni tashkil etishda strategik texnologik vosita sifatida baholanmoqda. Ularning asosiy ustunligi — real vaqt rejimida monitoring olib borish, xavf zonalarini tezkor aniqlash va evakuatsiya yo'nalishlarini avtomatik tarzda shakllantirish imkoniyatidadir.

Sun'iy intellekt (AI), geoinformatsion tizimlar (GIS) va Internet of Things (IoT) integratsiyasi asosida shakllangan dron modellarining samaradorligi xalqaro ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida boshqariluvchi dron tizimlari ma'lumot uzatish tezligini o'rtacha 1,5 barobar oshiradi hamda ob'ektlarni aniqlash aniqligini 90 % atrofiga yetkazish imkonini beradi. Geoinformatsion tizimlar (GIS) bilan integratsiya qilingan dron modellarining sinov natijalari esa xavfli zonalaridan evakuatsiya vaqtini 25–30 % gacha qisqartirish imkoniyatini namoyon etgan. Tahlil

natijalariga ko'ra, dron texnologiyalarini favqulodda vaziyatlar tizimiga integratsiya qilishda texnik omillar bilan bir qatorda tashkiliy va normativ muhit ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, dron, sun'iy intellekt va GIS texnologiyalarining uyg'unligi favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tizimlarini raqamlashtirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu yondashuv O'zbekiston Respublikasining xavfsizlik tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish va inson hayotini himoya qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. *Suleymanov A.A., Aripkhodjayeva M., Ruziev S.T.* Evacuation of the population in case of threat and emergency situations // Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture. Uzbekistan: 2023. P. 67-72. URL: <https://journal.pubmedia.id/index.php/civilengineering/article/view/2400>
2. *Насирова С.Ш., Сулейманов А.А.* Совершенствование процесса эвакуации населения при ЧС. Saarbrücken: Globe Edit Publishing, 2023. 101 p. ISBN: 978-620-0-64505-0.
3. *Насирова С.Ш., Сулейманов А.А., Сафарбоева Г.И.* Дополнительные сигналы оповещения лицам с ограниченными возможностями для эвакуации при радиационной опасности // Материалы научно-практической конференции “Радиационная безопасность в съвременния свят”, 18–20 март 2025 года. Болгария: Национален военен университет “Васил Левски”, 2025. С. 2-4.
4. *Abdurakhmanova A.D.* Emergencies and protection of the population: Textbook. Tashkent: TSTU, 2020. 203 p.
5. *Ismaylov K., Suleymanov A., Toshev S., Ruziev S.* Option of the method of successive approximations in calculating the epicenters of extreme and emergency situations. İlköğretim Online, Vol. 20, No. 8, 2021, 1640-1647.
6. *Wang J.W., Wang H.F., Zhang W.J., Ip W.H., Furuta K.* Evacuation Planning Based on the Contraflow Technique With Consideration of Evacuation Priorities and Traffic Setup Time // IEEE Transactions on Intelligent Transportation Systems. United States: IEEE, 2013. Vol. 14, No. 1. P. 480-485. DOI: 10.1109/TITS.2012.2204402
7. *Zhang X.Y., Wang Z.T.* The Application and Study of Urban Seismic Shelters for Evacuation Based on GIS // Applied Mechanics and Materials. – Switzerland: Trans Tech Publications Ltd., 2012. Vols. 166–169. P. 2028–2032. DOI: 10.4028/www.scientific.net/AMM.166-169.2028
8. *Doğan Ö., Şahin O., Karaarslan E.* Digital Twin Based Disaster Management System Proposal: DT-DMS // arXiv preprint arXiv:2103.17245. United States: arXiv, 2021. 12 p. URL: <https://arxiv.org/abs/2103.17245>
9. *Twarogowska M., Goatin P., Duvigneau R.* Macroscopic Modeling and Simulations of Room Evacuation // arXiv preprint arXiv:1308.1770. United States: arXiv, 2013. 15 p. URL: <https://arxiv.org/abs/1308.1770>
10. FVV rasmiy sayti: www.fvv.uz

УЎК 641.881

ЁҒОЧ МАТЕРИАЛЛАРИ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ ЁНУВЧАНЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ КАМАЙТИРИШ УСУЛЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ

Юлдашев Ш. к.ф.д, доцент, Иномов Д.О.
Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси
Полимерлар кимёси ва физикаси институти

Аннотация. Ушбу тадқиқот ишида Республикамизда содир бўлган ёнғинлар таҳлили ҳамда ёғоч маҳсулотларининг ёниш механизми ва уларни ёнувчанлигини камайтириш усуллари ўрганиб чиқилди.

Калит сўзлар: ёғоч маҳсулотлари, ёнувчанлик, қийин ёнувчанлик, тутун ҳосил қилиш коэффициенти, формальдегид, антипирен, целлюлоза.

Аннотация. В данной исследовательской работе смоделированы пожары, возникшие в нашей республике, а также изучены механизмы горения изделий из древесины и методы снижения их горючести.

Ключевые слова: изделия из древесины, горючесть, трудновоспламеняемость, коэффициент дымообразования, формальдегид, антипирен, целлюлоза.

Annotation. In this research work, the analysis of the fires that occurred in our Republic, as well as the combustion mechanism of wood products and methods of reducing their flammability were studied.

Keywords: wood products, flammability, difficult flammability, smoke generation coefficient, formaldehyde, flame retardant, cellulose.

Ишлаб чиқариш, турар жой ва жамоат биноларида қўлланиладиган қийин ёнувчан олов ва иссиқдан ҳимояланган қурилиш материаллари кенг қўлланиладиган ривожланган давлатлар тажрибаси асосида тегишли адабиётлар қиёсланган ҳолда таҳлил қилинди. Ёнғин хавфини баҳолаш тизими ёнғиннинг жамоат ва турар-жой биноларида хавфли ижтимоий-иқтисодий оқибатларини ҳисобга олиш, ёнғин хавфини олдини олиш, таҳлил қилиш усулларининг муаммоли масалалари, тутун ҳосил бўлиши натижасида келтирилган зарарлари ва уларнинг оқибатлари бўйича маълумотлар таҳлил қилинди.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида таркибида целлюлоза тутган ёғоч асосида олинадиган маҳсулотлар иссиқликка ҳамда оловга бардош бериш хусусияти, ёнувчанлиги, ёниш натижасида тутун ҳосил қилиши, ёнғин вақтида турар-жой ва жамоат биноларида аҳолининг ҳаёти ва соғлигига зарар келтириш кўрсаткичлари бўйича маълумотлар жамланди ва таҳлил қилинди. Таҳлиллар натижасига кўра, ҳозирда қурилаётган турар жой биноларида ёнғин юқламаси ўртача 60 кг/м² ташкил этмоқда. Турар жой биноларида жойлашган хоналарнинг сонидан келиб чиққан ҳолда, 2 ва 3 хонали хонадонда 52 кг/м² дан 57 кг/м² ни ташкил этмоқда. Мазкур ёнғин юқламасининг ўртача 52 % мебель жиҳозлари, 33 % матолар ва 13 % қоғоз ва 2 % ни бошқа ёнувчи модда ва материаллар ташкил этмоқда.

Содир бўлган ёнғинларда ёнғиннинг тез тарқалишига сабаб бўлувчи қурилиш материалларидан бири бу ёғоч асосли қурилиш материаллари ҳисобланади. Ҳозирги кунда энергия тежамкор экспорт ўрнини босувчи, маҳаллий қурилиш материалларини ишлаб чиқариш давлатимизнинг бугунги кундаги асосий вазифаларидан бири ҳисобланади..

Ёғоч биологик ва кимёвий жиҳатдан мураккаб моддалар мажмуасидир. У асосан (99 %) органик моддалардан иборат бўлиб, уларнинг тахминан 70 % углеводлардан иборат, қолган қисмини лигнин ва экстрактив моддалар ташкил қилади.

Ёғочнинг углевод қисмига (полисахаридлар) ёғочнинг асосий компоненти – целлюлоза (оғирлиги бўйича 40-50 %) ва целлюлоза бўлмаган полисахаридлар-гемицеллюлозалар (полиозлар) киради.

Лигнин – ёғочнинг тузилишдаги ароматик бирикмалар мажмуасидир. Унинг ёғочдаги масса улуши 20-30 % ни ташкил қилади.

Экстрактив моддалар – бу ёғочдан эритувчилар ёрдамида олинадиган моддалар: сув ёки органик эритувчилар. Уларнинг ёғочдаги масса улуши 3-4 % ни ташкил қилади. Уларга қуйидагилар киради: буғ билан ажралиб чиқувчи моддалар (терпенлар ва терпеноидлар); сувда эрийдиган моддалар (паст молекуляр ва юқори молекуляр бирикмалар).

Ёғочни органик қисмининг элементлар таркиби бир бири билан бироз фарқ қилади. Ўртача углерод-49,5 %, кислород-44,1 %, водород-6,3 %, азот-0,1 %.

Ёғочнинг ёниши унинг термал парчаланиш қонунлари туфайли келиб чиққанлиги сабабли, бу жараёни кўриб чиқиш ишлари тақозо этилмоқда. Маълумки, ёғочнинг термик парчаланиш жараёни бир неча босқичларни ўз ичига олади. Сирт қатлами 110 °C га қиздирилганда, унинг таркибидаги намлик тезда буғланади. Шундан сўнг, у ёнувчан моддаларнинг газсимон ҳолатда чиқиши билан парчаланади. 210 °C дан юқори ҳароратда ва ёниш манбаи мавжуд бўлганда, бу моддалар ёнади, ҳарорат кўтарилади ва жараён ёнишнинг экзотермик босқичига ўтади. 260 °C ҳароратда, ёғоч пиролизининг учувчи маҳсулотларининг узоқ муддатли ва барқарор ёниши олов ҳосил бўлиши ва ҳароратнинг янада ошиши билан бошланади. 450 °C ҳарорат ва ундан кўп 900 °C гача бўлган ҳароратда кўмирнинг алангасиз ёниш маҳсулотига айланади. Стандарт синовлардан маълумки, ёғоч 330 °C дан юқори ҳароратларда ўз-ўзидан ёниш қобилиятига эга. Ёғоч узоқ вақт қиздирилганда бу ҳарорат камайиши мумкин. Ёғочнинг ўз-ўзидан ёниши, атрофдаги бўшлиққа вақт бирлигида ёнаётган сирт томонидан чиқарилган иссиқлик миқдори билан боғлиқ. Ҳисоб-китоблар шуни кўрсатадики, ёғочнинг 1 м² ёнаётган юзаси 260-340 минг кЖ/м² иссиқлик миқдорини чиқаришга қодир.

Бу иссиқлик ёниш жараёнини узлуксиз таъминлаш учун етарли ҳисобланади. Қаттиқ фазани иситиш тезлиги ёғочнинг термофизик хусусиятлари ва ҳолати, атроф-муҳит билан иссиқлик алмашинуви шартлари, ёғоч маҳсулотининг ўлчами ва шакли билан белгиланади.

Ёниш зонасидан ёғоч юзасига иссиқлик оқимининг таъсири остида унинг термик оксидловчи пиролизи содир бўлади. 100 °С дан юқори ҳароратда, ёғочда сув борлиги сабабли, гемицеллюлоз гидролизи содир бўлади. 150 °С дан юқори ҳароратларда, бу жараён тезлашади. 275-285 °С ва 350 °С гача бўлган ҳароратда кўп миқдорда CO_2 , CO (2:1 нисбатда) ва сирка кислотаси бўлган суюқ дистиллат, унинг гомологлари ва метанол ажралиб чиқади. 280 °С дан юқори ҳароратларда, CO_2 ва CO миқдори камаяди, водород ва углеводородлар ҳосил бўлади. 250-500 °С ҳароратда, лигнин ва экстрактив моддаларнинг парчаланиши оз миқдордаги суюқ маҳсулотлар, асосан оғир қатронлар, CO_2 , CO ва углеводородларнинг шаклланиши билан бирга келади. Углеводородларнинг концентрацияси 380-500 °С ҳароратда максимал даражага етади. Конденсацияланмайдиган газлар асосан (ҳажм,): CO_2 (43-46 %), CO (29-33 %), H_2 (1,9-2,3 %), тўйинмаган углеводородлар (2,2-3,7 %) ва тўйинган углеводородлар (17-22 %). Ёғочнинг термик-оксидланиши парчаланиш маҳсулотларининг чиқиши иссиқлик таъсирининг ҳарорати ва давомийлигига боғлиқ. Қарағай дарахти учун ўртача 30-35 % кўмир, 45-50 % суюқ дистиллат ва 15-20 % газсимон моддалар ҳосил бўлади.

Шундай қилиб, ёғочнинг термо-оксидловчи парчаланиш жараёни икки босқичда давом этади: биринчи босқич (280 °С гача бўлган ҳарорат) эндотермик; иккинчи босқич (280 °С дан юқори бўлган ҳарорат) экзотермикдир. Иккинчи босқич, ўз навбатида, икки даврга бўлинади: ёғочнинг термик парчаланиши пайтида ҳосил бўлган газларнинг ёниши (ёниш алангаси) ва ҳосил бўлган кўмирнинг ёниши.

Қарағай ёғочининг ҳарорати 280 °С ҳароратга етганида ёғочнинг ёниш сабабини ва қуруқ дистиллаш маҳсулотлари таркибини таҳлил қилиш имконини беради (1-жадвал). 280 °С гача бўлган ҳароратда, ажралиб чиқаётган газсимон маҳсулотларнинг таркибида ёниш жараёнини флегматизация қилувчи CO_2 устунлик қилади. Бу ҳарорат ошиб кетганда, ёнувчан газлар устунлик қилади: углеводородлар аралашмаси, H_2 ва CO , газ фазасида мавжудлиги ёниш жараёнини таъминлайди.

1-жадвал

Қуруқ ёғоч дистиллаш маҳсулотларининг таркиби

Қуруқ дистиллаш маҳсулотлар таркиби	Ҳарорат, °С					
	150-200	200-280	280-380	380-500	600-700	700-900
Кўмир таркибидаги углерод миқдори, %	60	68	18	84	84	91
Газ миқдори, ҳажм %						
CO_2	68	66,5	35,5	31,5	12,2	0,4
CO	30,5	30	20,5	12,3	24,5	9,6
H_2	0	0,3	5,5	7,5	42,7	80,7
Углеводородлар	2	3,3	36,5	48,7	20,4	8,7
Газнинг иссиқлик қиймати, кҖЖ/м ³	4,61	5,07	16,42	20,03	15,21	13,24

Ёғоч целлюлозаси асосий компонентининг пиролизи икки хил механизм билан амалга оширилади:

1. 200-280 °C ҳароратда целлюлоза дегидроцеллюлозага айланади, кейин кўмир, CO₂, CO ва H₂O га айланади.

2. 280-340 °C гача бўлган ҳарорат оралиғида целлюлоза қатронларга, асосан левоглюкозага айланади, бу газ фазали ёниш учун маҳсулот ва ёқилғи ҳисобланади. Биринчи механизм томонидан чиқарилган газлар асосан ёнмайди ва ҳосил бўлган кўмир фақат ёнишни ёниш механизми билан қўллаб-қувватлаши мумкин. Целлюлоза пиролизида иккита рақобатдош механизм пайдо бўлиши ёғочни ёнғиндан ҳимоя қилиш учун жуда муҳимдир.

Ёғочнинг алоҳида таркибий қисмларининг (целлюлоза, лигнин ва гемицеллюлоза) термал парчаланишини таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, асосий дистиллаш маҳсулотлари - кўмир, сувли дистиллат, қатрон ва газсимон маҳсулотлар - ёғочнинг барча асосий компонентларидан ҳосил бўлади. Шу билан бирга, кўмир ва қатронга ўхшаш моддалар лигниндан энг кўп миқдорда ва целлюлозадан бироз кичикроқ миқдорда ҳосил бўлади (2-жадвал).

2-жадвал

Қарағай ёғочи ва унинг таркибий қисмларини қуруқ дистиллаш маҳсулотлари

Қуруқ дистиллаш маҳсулотлари	Ёғоч	Целлюлоза	Лигнин
Қаттиқ, вазн бўйича (%): кўмир	37,81	34,86	50,64
Суюқлик, вазн бўйича (%): сирка кислотаси метил спирт қатронлар ацетон	3,19 0,96 8,08 0,2	2,79 - 6,28 0,13	1,09 0,9 13,0 0,19
Газсимон, ҳажм бўйича (%): CO ₂ CO CH ₄ Углеводородлар	56,5 32,55 9,23 1,72	62,9 32,42 3,12 1,5	69,6 50,9 37,5 2,0

Шундай қилиб, ёғочнинг ёнишидан олдин қаттиқ фазанинг парчаланиши ва газлаш босқичи содир бўлади. Ёниш жараёни ташқи ёниш манбаи томонидан термал парчаланишнинг учувчи ёнувчан маҳсулотларини ёқиш натижасида ёки улар ўз-ўзидан алангаланганда бошланади. Ёниш жараёни 1-расмдаги диаграмма билан тасвирланган:


- реакциясиз зона – қаттиқ фазани иситиш зонаси, бу зонанинг қалинлиги, иссиқлик алмашинуви шароитларига қараб, 3-5 мм;

- термал парчаланиш зонаси – конденсацияланган фазадаги реакция зонаси, унда целлюлоза ва лигнин учувчи ёнувчан маҳсулотларга парчланади;

- иссиқлик парчаланишининг паст молекуляр оғирликдаги учувчи маҳсулотлари янада парчаланадиган газ фазасидаги олдиндан ёниш зонаси бу ерда ёниш жараёни бошланади;

- асосий оксидланиш реакциялари содир бўладиган газ фазасидаги олов зонаси (ёки реакция зонаси) иссиқликнинг асосий қисми чиқарилади ва максимал ҳарорат кузатилади;

- ёниш маҳсулотлари зонаси, унинг таркибида тўлиқ (CO_2 ва сув буғлари) ва тўлиқ бўлмаган (CO , турли хил кимёвий тузилмаларнинг тўйинган ва тўйинмаган углеводородлари, қурум) ёғочнинг ёниши маҳсулотлари мавжуд.



1-расм. Ёғочнинг ёниш жараёни

Ёғочни ёниши ва ёнишнинг ўзига хос хусусияти целлюлоза ва лигнинни ёниш маҳсулотларига айлантиришнинг кўп босқичли жараёнидир. Бу жараён қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

- олов манбасидан ёғочга иссиқлик энергиясини сингдириш;


- учувчи маҳсулотлар ва карбонланган қолдиқларнинг шаклланиши билан қаттиқ фазанинг парчаланиши;

- термал парчаланишнинг учувчи ёнувчан маҳсулотларини ёқиш;

- ҳосил бўлган учувчан ёнувчан термал парчаланиш маҳсулотларининг ёниши. Ёғочнинг термал парчаланиши пайтида ёнмайдиган ва ёнувчан учувчи маҳсулотлар ҳосил бўлади. Ёнмайдиганларга сув буғлари, карбонат ангидрид ва азот киради. Ёнувчан маҳсулот сифатида углеводород оксиди, водород, тўйинган ва тўйинмаган углеводородлар, альдегидлар, спиртлар, кетонлар ва бошқа органик бирикмалар ажралиб чиқади. Ажралиб чиқадиган газлар таркиби ҳарорат $200\text{ }^{\circ}\text{C}$ ҳароратга ошиши билан ўзгаради (3:1 нисбатда); $300\text{ }^{\circ}\text{C}$ га CO_2 , CO ва CH_4 ; $400\text{--}700\text{ }^{\circ}\text{C}$ ҳароратда CO_2 , CO , CH_2 , H_2 , қуйи углеводородлар.

Ёғочнинг термал парчаланишининг учувчи маҳсулотларида ёнувчан компонентларнинг устунлиги $230\text{--}250\text{ }^{\circ}\text{C}$ ҳароратда бошланади, бунда ёниш манбаи мавжуд бўлганда содир бўлади.

Ёғочнинг термал парчаланишининг учувчи ёнувчан маҳсулотлари ҳамда ҳаво кислород аралашмаси ёқилгандан сўнг ёниш жараёни содир бўлади. Бу ҳолда чиқарилган иссиқлик қисман атрофдаги бўшлиққа тарқалади ва қисман ёғочнинг янги қатламларини термал йўқ қилишга сарфланади (2-расм).



2-расм. Ёниш вақтида ёғоч засига таъсир қилувчи иссиқлик оқимларининг схемаси

Матемитик жиҳатдан барқарор ёнишнинг ривожланиш шарти қуйидагича ифодаланади:

$$q_{\text{ташқи}} + q_{\text{ёғоч юза}} > q_{\text{йўқотилиш}}$$

бу ерда, $q_{\text{ташқи}}$ — ташқи иссиқлик оқими; $q_{\text{ёғоч юза}}$ — ёғоч юзасидаги иссиқлик оқими; $q_{\text{йўқотилиш}}$ — ёниш зонасидан атроф-муҳитга тарқаладиган иссиқлик оқими. Агар юқоридаги нисбат бажарилмаса ёниш тўхтайд.

Ёғочнинг ёниши очик ёнғиндан ҳам, чўланма жисмлардан ҳам ёки иссиқ газлардан ҳосил бўлиши мумкин. Ёғочдан ясалган панелларнинг махсус хусусиятларига эришиш уларни ўзгартириш орқали амалга оширилади-ёғоч комплексининг кимёвий таркиби ва тузилишидаги йўналтирилган ўзгаришлар ёки қўшимчаларнинг моддий таркибига кимёвий таъсир ўтказмасдан, аммо янги сифатни мажбурий олиш билан киритилади. Ушбу янги сифат ёғочдан ясалган панелларни турлар бўйича ажратиш учун асос бўлиб, уларнинг ичида маълум бир турдаги материаллар учун қабул қилинган кўрсаткичларнинг миқдорий қийматига кўра уларнинг гуруҳларга бўлиниши белгиланади. Ёғочдан ясалган панелларнинг ёнувчанлигини камайтириш муаммоси бир неча асосий жиҳатларга эга. Табиий вазифа ёғочдан ясалган панелларнинг асосий моддаси-ёғочни ёнғиндан ҳимоя қилишдир. Ушбу муаммонинг ечимлари турли хил ёғоч материалларида-ёғочнинг механик технологияси маҳсулотларида (масалан, ёғоч, тахта ва бошқалар), шунингдек, думалоқ ёғочларда (масалан, ёғоч уйларни қуриш учун) мавжуд.

Ёғочдан ясалган панелларнинг умумий ёнувчанлик даражасини пасайтириш учун унчалик аҳамиятга эга бўлмаган иккинчи вазифа синтетик боғловчиларни, асосан КФС ва ФФСни ёнғиндан ҳимоя қилишдир. Бу озроқ даражада меламин-формалдегид бириктиргичларига тааллуқлидир. Ёғоч асосидаги қурилиш материалларини ишлаб чиқариш

муаммолари, ёғоч компонентлари ва синтетик полимерларнинг иссиқлик ўзгариши қонунлари, уларнинг пиролиз натижасида ҳосил бўладиган маҳсулотларнинг ёнувчанлиги, ёнғинга қарши воситалар ёғоч ва бириктирувчи моддалар билан кимёвий ўзаро таъсири ва технологик шароитлар, плиталар ишлаб чиқариш такомиллаштириш зарурияти борлиги ўрганилди. Хорижий давлатларда ва мамлакатимизда амалга оширилган тадқиқотларнинг аксарияти интеграл ёндашувдан фойдаланмаганлар, аммо мос келадиган оловбардош воситани топиб, муаммони ҳал қилишга ҳаракат қилганлар, натижада ёғоч асосидаги қурилиш материалларининг физик ва механик хусусиятлари пасайган, Ё2 ёнувчанлик гуруҳи ўтказилишга эришилган. Ишлаб чиқарувчи корхона базасида маҳаллий хомашё манбаларига асосланган оловбардош қурилиш материалларини ишлаб чиқариш имконияти тўғрисида хулоса чиқарилган. Бунинг учун ёғоч хомашёсини маҳаллий хомашё манбаларидан танлаш, юқори сифатли ЁҚП олиш учун қипиқларнинг заррача катталиги бўйича оптимал тақсимотини ўрнатиш, ёнғиндан ҳимоя қилиш ва хавфсизликнинг зарур даражасини таъминлайдиган маҳаллий хомашё манбаларидан мавжуд бўлган оловбардош воситалар ва тўлдирувчи моддаларини танлаш, ёнғинга чидамли ЁҚП ишлаб чиқариш учун таркибнинг оптимал таркиби ва формуласини ишлаб чиқиш талаб этилади. Айни пайтда давлатимизда фаолият кўрсатаётган ёғоч асосидаги плиталар ишлаб чиқарадиган корхоналар базасида ёғоч асосидаги оловбардош таркибли плиталар ишлаб чиқиш саноат технологиясини такомиллаштириш зарурияти борлиги аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. А.С.346145 СССР, МКИ В 29 j 5/00. Способ изготовления трудновоспламеняющихся древесностружечных плит [Текст] / И.Г. Корчаго, А.А. Леонович, Г.А. Панюкова. –№ 1662506/29-33; заявл. 20.05.71; опубл. 28.07.72, Бюл. № 23.
2. А.С. 352987 СССР, МКИ D 21 h 3/00. Способ изготовления огнезащищенного волокнистого материала [Текст] / А.А. Леонович, Н.Я. Солечник, А.С. Хламенко и др. –№ 1603233/29-33; заявл. 28.12.70; опубл. 29.09.72, Бюл. № 29.
3. Леонович, А.А. Универсальный антипирен амидофосфат КМ / А.А. Леонович, А В Шелоумов // Хим. промсть. -2006-Т. 83. № 12. –С. 601–05.
4. Шелоумов, А.В. Термодинамические характеристики процесса синтеза амидофосфата КМ [Текст] / А.В. Шелоумов, А.А. Леонович // Древесные плиты: теория и практика / под ред. А.А. Леоновича: 18-я Междунар. науч.-практ. конф., 18–9 марта 2015 г. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2015. –С. 66–2. 347
5. Киселева О.А. Прогнозирование работоспособности древесностружечных и древесноволокнистых композитов в строительных изделиях: дисс. к.т.н. / О. А. Киселева. - Воронеж: ВоГТУ, 2003. – 208 с.

УДК 641.84

ИММОБИЛИЗАЦИИ ГИБРИДНЫХ АНТИПИРЕНОВ В СТРУКТУРУ ДРЕВЕСНОЙ ЩЕПЫ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ТРУДНОГОРЮЧЕЙ ПОЛИМЕР-ЦЕЛЛЮЛОЗНЫХ КОМПОЗИТНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Юлдашев Ш. к.ф.д, доцент, Маджидов И.У. д.т.н., профессор,
Иномов Д.О. Узбекистон Республикаси Фанлар Академияси
Полимерлар кимёси ва физикаси институти

Аннотация: В данной работе приведены результаты экспериментальных исследований по определению возможности иммобилизации азотных и фосфорных антипиренов в структуру древесной щепы и получения трудногорючей ДСП на их основе. Определены оптимальные составы трудногорючей полимер-целлюлозных композиций и разработаны рецептуры для производства трудногорючей ДСП.

Ключевые слова: ДСП, огнезащита, антипирен, пожароопасность, КМЦ, МКЦ

Аннотация: Ушбу мақолада азот ва фосфор тутган антипиренларни ёғоч қипиғи структурасига иммобилизация қилиш имкониятларини аниқлаш ва улар асосида қийин ёнувчан ёғоч-пайрахали плиталар (ЁПП) олиш бўйича экспериментал натижалар келтирилган. Қийин ёнувчан полимер-целлюлоза композицияларининг оптимал таркиби аниқланди ва қийин ёнувчан ЁПП ишлаб чиқриш учун рецептура яратилди.

Калит сўзлар: ЁПП, оловдан ҳимоя, антипирен, ёнғин хавфсиз, карбоксиметилцеллюлоза (КМЦ), микрокристаллик целлюлоза (МКЦ).

Annotation: This paper presents the results of experimental studies to determine the possibility of immobilizing nitrogen and phosphorus fire retardants into the structure of wood chips and producing flame-retardant particleboard based on them. Optimal compositions of flame-retardant polymer-cellulose composites have been determined and formulations for the production of flame-retardant particleboard have been developed.

Key words: particleboard, fire protection, fire retardant, fire hazard, carboxymethyl cellulose (CMC), microcrystalline cellulose (MCC)

Древесно-стружечные плиты (ДСП) относятся основным материалам широко использующийся в строительной и мебельной промышленности. Это обусловлено ограниченностью лесных массивов позволяющих производить и обеспечить необходимое количество пиломатериалов для указанных отраслей промышленности [1].

В настоящее время большая часть пиломатериалов и ДСП в Республику завозится по импорту. Основной объем этих завозимых материалов относятся к классу горючих и пожароопасных [2]. В настоящее время в Ташкентской области функционирует единственное предприятие ООО “Delmar Discount”, которое производит горючую ДСП по классической технологии на основе древесной щепы образующуюся при санитарной рубке деревьев города Ташкента, Ташкентской области и

отходов деревоперерабатывающих предприятий. Целью проведенных исследований было исследование возможности получения высококачественной трудногорючей ДСП на основе местных источников сырья, отвечающих требованиям стандартов по показателю горючести.

Цель достигнута путем выбора эффективных местных антипиренов и наполнителей, установлением их содержания в древесной массе при получении трудногорючей ДСП, определением их оптимальных составы обеспечивающих огнестойкой ДСП. Технология производства ДСП основана на смешении измельченной древесины или опилок с связующей – карбамидоформальдегидной смолой и отвердителем - хлористым аммонием, гидрофобизирующими добавками, с последующим формированием «ковра» и прессованием [3].

В производстве ДСП должны быть использованы связующие с низким содержанием свободного формальдегида, обладающие пониженной токсичностью. Однако, ДСП известного состава, из-за низкой связующей способности карбамидоформальдегидной смолы наличия большого объема свободных пор, обладает недостаточными физико-механическими показателями и подвержены горению [4].

Для снижения показателя горючести древесно-стружечную композицию добавляли различные типы, количества антипиренов и наполнителей, способствующих снижению объема свободных пор. Известно, что самым эффективным, распространенным, производственно освоенным антипиренам относятся соединения азота и фосфора [5]. Нами в качестве антипиренов исследованы возможности получения трудногорючих образцов ДСП с использованием местных, промышленно производимых, доступных азот и фосфор содержащих соединений – ортофосфорная кислота и аммиака которые широко используются в производстве минеральных удобрений.

Известно, что получение дигидрофосфата аммония осуществляется на основе химической реакции ортофосфорной кислоты с аммиаком. Поэтому для повышения огнестойкости продуктов в качестве исходного сырья нами использованы местное сырьё - ортофосфорная кислота и водный раствор аммиака. При этом, древесную щепу обрабатывали раствором ортофосфорной кислоты с последующей её нейтрализацией до дигидрофосфат аммония в структуре древесной массы. После сушки до остаточной влажности 4-6 % полученную сухую массу подвергали смешению связующим и прессовали на гидравлическом прессе при температуре 170-180⁰С в течение 10 мин. Характеристики полученных образцов ДСП по показателям пожароопасности исследованы по ГОСТу 12.1-0.44-89. В таблице 1 приведены показатели горючести промышленных, опытных образцов ДСП, обработанных антипиренами различной концентрации.

Таблица 1.

Показатели горючести образцов ДСП обработанных последовательно ортофосфорной кислотой и аммиаком.

№	Конц. антипи-рена, %	Масса образца, г		Потеря массы, %	Температура отходящих газов, °С				
		До исп	После исп		T _{1 мин}	T _{2 мин}	T _{3 мин}	T _{4 мин}	T _{5 мин}
Промышленный образец ДСП									
1	0	112,5	4,6	96,0	260	700	750	-	-
ДСП обработанный антипиреном									
1	5	123	81,2	34	200	260	365	485	475
2	8	116,5	81,5	30		244	240	236	238
3	10	110,0	84,7	23	243	285	430	442	436
4	14	117,3	95,0	19	260	365	200	485	475
5	16	113,7	94,3	17	205	260	350	360	365
6	18	119,0	102,7	14	167	169	166	166	166
7	20	120,0	105,6	12	184	242	319	338	376

Как видно из таблицы, потеря массы промышленного образца ДСП при горении составлял 96 %. За 3 минуты образцы полностью сгорели в огненной трубе, и температура отходящих газов достигала максимального значения. Увеличение концентрации антипирена от 5 % до 20 % приводил уменьшению потери массы при горении образцов до 12 % и температура отходящих газов снижался до 166⁰С за 5 минут. Известно что, добавление антипирена в состав древесной массы приводит резкому уменьшению физико-механических свойств ДСП. Для увеличения физико-механических показателей ДСП нами проведены исследования добавления в состав ДСП раствора карбоксиметилцеллюлозы (КМЦ) и микрокристаллической целлюлозы (МКЦ), которые одновременно заполняли свободные поры. Одновременно добавление в композицию раствора Na-КМЦ способствует повышению равномерности распределения антипирена в древесной массе и повышению его термической устойчивости [6], а МКЦ способствует увеличению плотности ДСП за счет заполнения пор древесной массы, что способствует снижению объема кислорода в порах ДСП. Горючесть полученных образцов трудногорючей ДСП обработанных 1 % водным раствором КМЦ с добавлением различных количеств МКЦ приведены в таблице 2.

Таблица 2.

**Зависимости показателя горючести образцов
ДСП от количеств МКЦ.**

№	К-во МКЦ, %	Масса образца, г		Потеря массы, %	Температура отходящих газов, °С				
		До исп	После исп		T ₁ мин	T ₂ мин	T ₃ мин	T ₄ мин	T ₅ мин
1	2	133,7	107,3	19,7	177	204	261	321	385
2	4	142,6	119,8	16,0		222	218	215	220
3	6	127,1	113,0	11,1	171	176	178	180	181
4	8	131,1	118,8	9,4	170	187	208	270	278
5	10	112,1	103,1	8,0	150	185	210	230	260
6	12	159,2	150,4	5,5	130	160	170	175	188
7	14	176,7	168,5	4,6	135	155	167	178	180

Как видно из таблицы 2, увеличением количества МКЦ в 1 % водном растворе КМЦ огнестойкость полученных образцов ДСП резко возрастает, и потеря массы достигает 4,6 % при горении. Таким образом, данный способ дал высокую эффективность чем предыдущих экспериментах. Но с увеличением концентрации МКЦ в составе ДСП более 10-14 % происходит резкое ухудшение механических характеристик продуктов.

Полученный эффект видимо объясняется следующим образом. При введении в состав древесной щепы солей фосфорной кислоты они не вступают в химическую реакцию и неравномерно распределяются в структуре щепы. В отличие от этого при введении в состав композиции, создающийся из древесной щепы, КМЦ и МКЦ, раствора ортофосфорной кислоты с последующей его нейтрализацией раствором аммиака она равномерно распределяется по всему объему древесной щепы из-за адгезии частиц соединений на поверхности частиц древесной щепы. При добавлении ортофосфорной кислоты в данную композицию протекает химическая реакция между ортофосфорной кислотой и частицами целлюлозных соединений с образованием сложноэфирных связей следующей формулы и достигается равномерность распределении ортофосфорной кислоты по всему их объему:




Рисунок 1. Реакция этерификации КМЦ, МКЦ и древесной щепы
с ортофосфорной кислотой

При добавлении расчетного количества аммиака протекает следующая реакция замещения свободных ионов водорода ортофосфорной кислоты на аммиак с образованием моноаммониевого соля химически связанного с элементарными звеньями целлюлозы.




Рисунок 2. Реакция образования антипирена в процессе нейтрализации кислоты раствором аммиака в структуре целлюлозной композиции. Далее в полученную пресс-композицию вводят карбомидоформальдегидную смолу и при перемешивании отвердитель-хлористый алюминий. Добавление в структуру полученного продукта хлористого алюминия способствует межмолекулярной сшивке, где хлористый алюминий является катализатором реакции сшивки. В процессе прессования полученной конечной композиции при температуре 160-180°C протекает реакция сшивки с образованием следующей структуры:




Рисунок 3. Образование сшитой структуры в составе целлюлозосодержащего сырья.

Сложный эфир целлюлозного звена с ортофосфорной кислотой вступает в реакцию сшивки с олигомером карбомидоформальдегидной смолы с образованием моноаммониевой соли, что способствует снижению набухания и водопоглощения продукта с одновременным уплотнением структуры ДСП за счет заполнения свободных пор частицами МКЦ и КМЦ.

При этом формальдегид и карбамидоформальдегидная смола может образовать побочные сшитые производные целлюлозы следующей структуры:




Рисунок 4. Сшитые производные целлюлозы с карбамидоформальдегидной смолой и формальдегидом. Ортофосфорная кислота обладает высокой реакционной активностью при высокой температуре. При обработке древесной щепы и сушке при высокой температуре образуются химические связи между ангидроглюкозными звеньями МКЦ с образованием сложного эфира по всему объему получаемых образцов ДСП. При добавлении расчетного количества аммиака образуется однородно распределенный по всему объему опилкок антипирен - дигидрофосфат аммония в объеме древесной щепы. Полученная ДСП имеет значительно меньше пустот в структуре за счет добавления в композицию МКЦ, что подтверждается ее высокой плотностью.

Как видно из результатов исследований, за счет химических реакций между ортофосфорной кислотой, раствором аммиака, МКЦ, КМЦ, синтетической смолы и свободным формальдегидом образуются ковалентные химические связи, что способствует получению, с одной стороны, огнестойкого материала, а с другой стороны -экологически безопасного, санитарно-гигиенической позиции трудногорючего образца ДСП на основе местных источников сырья. На основании результатов лабораторных исследований по подбору оптимальных соотношений компонентов, результатов физико-химических, физико-механических испытаний, образцов ДСП и испытаний показателей горючести был рекомендован состав для производства трудногорючей ДСП: антипирен – 10-22 %, синтетическая смола с отвердителем – 8-15 %, древесная щепа – 72-48 %, МКЦ и другие наполнители – 10-15 %.

На основании разработанной рецептуры, получены образцы ДСП, которые имеют следующие физико-механические показатели:

- плотность 590-620 кг/м³;
- предел прочности при изгибе 14,2-14,9 МПа;
- прочность на отрыв поперёк пластины – 0,35-0,42 МПа;
- разбухание по толщине за 24 часа - 17,5-18,1 %.

Модифицированные образцы ДСП исследовались в соответствии с требованиями ГОСТ 12.1.044-89 «Пожаровзрывоопасность веществ и материалов». Испытанные образцы ДСП при извлечении из керамической трубы самозатухают. Среднее значение показателя потери массы при горении модифицированных образцов ДСП (7 %) более чем в 9 раз меньше предельного значения (60%), свыше которых материалы перестают соответствовать трудногорючим по потере массы и по температуре отходящих газов.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. ВНИИБ. Технология целлюлозно-бумажного производства. Т 2. – СПб.: Политехника, 2006. 499 с.
2. Сарымсаков А.А., Йулдошов Ш.А., Усманов М.Х., Джураев С.М. Наполненные древесностружечных плит с пониженной горючести // Ж.Пожаровзрывоопасность, 2013, №8. -С. 38-42.
3. Завражнов А.М., Панов В.П., Елхова Н.Н. и др. Особенности технологии производства древесноволокнистых плит сухого непрерывного прессования // Деревообрабатывающая пром-сть. 2001, №1. –С.4-6.
4. Леонович А.А. Огнезащита древесины и древесных материалов: Учеб. пособие. –СПб.:ЛТА, 1994, -148 с.
5. Ермаков А.И., Завражнов А.М., Спироудинов Ю.Г. и др. Получение трудногорючих атмосферостойких древесных плит на основе волокнистой стружки // Деревообрабатывающая промышленность. 2001, №1. –С. 27-30.
6. Кокшаров А.В. Повышение огнетушащей способности пены низкой кратности // Вестник Воронежского института ГПС МЧС России, - 2013, Выпуск №4 (9). -С.48-50.

UO'K 641.84

SILIKAT MATERIALLAR ASOSIDAGI XONALARARO YONG'IN BARDOSH PLITALARNI QO'LLAGAN HOLDA BINO VA INSHOOTLARNING YONG'IN XAVFSIZLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Gulyamov Y.I., Hafizov F.O. t.f.f.d. (PhD),
O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, binolarda yong'in xavfsizligi talablarining oshib borayotgan sharoitda yong'inga chidamli innovatsion qurilish materiallarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Istiqbolli yo'nalishlardan biri – silikat komponentlari asosida (vermikulit, dolomit va wollastonit) ichki devor plitalarini qo'llashdir. Bu minerallar yuqori issiqlik qarshiligi, past issiqlik o'tkazuvchanligi va ekologik xavfsizligi bilan ajralib turadi. Ushbu ishda yuqori yong'inga chidamlilikka ega ko'p komponentli plitalarni yaratish imkoniyati o'rganiladi, shuningdek, ularning xossalari an'anaviy materiallar bilan taqqoslanadi.

Kalit so'zlar: yong'inga chidamlilik, bo'linmalar, wollastonit, dolomit, qurilish materiallari, issiqlikka chidamlilik, yong'inga chidamli materiallar.

Annotation: In this article, special attention is paid to the development of fire-resistant innovative building materials in the context of increasing fire safety requirements in buildings. One of the promising directions is the use of interior wall slabs based on silicate components (vermiculite, dolomite, and wollastonite). These minerals are characterized by high thermal resistance, low thermal conductivity, and environmental safety. In this work, the possibility of creating multi-component slabs with high fire resistance is studied, and their properties are compared with traditional materials.

Key words: fire resistance, sections, wollastonite, dolomite, building materials, heat resistance, fire-resistant materials.

Har yili turar joy va jamoat binolarida yong'in xavfsizligini oshirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, turar joy sektoridagi barcha yong'inlarning taxminan 30 foizi olovning binolar ichida tez tarqalishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa yonuvchan yoki yong'inga chidamliligi past bo'lgan qurilish materiallarining qo'llanilishi bilan izohlanadi. Shu sababli, yong'inga yuqori chidamlilikka ega bo'lgan ichki devor konstruksiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda, bunday konstruksiyalar nafaqat olov tarqalishining oldini oladi, balki xonalar orasidagi issiqlik uzatilishini ham kamaytiradi.

Silikat materiallar – vermikulit, dolomit va wollastonit – o'zining yong'inga chidamliligi, past zichligi va ekologik tozaligi bilan tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ushbu minerallar asosida kompozit plitalarni yaratish imkonini beradi, bu esa yuqori yong'inga chidamlilik darajasini (*EI 60–120) ta'minlash bilan birga qoniqarli fizik-mexanik xususiyatlarni saqlab qoladi.

Silikat komponentlarini tanlash asoslari.

Foydalanilayotgan komponentlarni tanlash asoslarini ko'rib chiqish uchun ularning termokimyoviy xossalarini tahlil qilamiz:

Vermikulit ($\text{Mg}_{0.7-1.0}\text{Fe}^{2+}_{0.7-1.0}(\text{AlSi}_3\text{O}_{1.0})(\text{OH})_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$): taxminan $\sim 800^\circ\text{C}$ haroratda **20–30 baravar** kengayadi, natijada issiqqa chidamli g'ovak qatlam hosil qiladi.

Dolomit ($\text{CaMg}(\text{CO}_3)_2$): $650\text{--}750^\circ\text{C}$ haroratda parchalanadi va bu jarayonda issiqlik yutiladi hamda CO_2 **ajralib chiqadi**, bu esa yong'in o'chog'ining haroratini pasaytiradi.

Vollastonit (CaSiO_3): 1200°C gacha bo'lgan haroratda barqaror, **issiqlik o'tkazuvchanligi past** ($\sim 0.2\text{--}0.3 \text{ Vt}/(\text{m}\cdot\text{K})$) va yuqori mustahkamlikka ega.

Mazkur materiallar ma'lum nisbatda aralashtirilganda optimal tuzilishga ega kompozit hosil bo'ladi: mustahkam ramka, issiqqa chidamli g'ovakli kiritmalar bilan to'ldirilgan bo'lib, bu issiqlik va alangani tarqalishini sekinlashtiradi.

Tadqiqot metodikasi.

ISO 834 bo'yicha yong'inga chidamlilikni hisoblash formulasi

Yong'inga chidamlilikni baholash uchun standart harorat egri chizig'i qo'llanildi:

$$T(t) = T_0 + 345 \cdot \log_{10}(8t + 1)$$

bu yerda:

- **$T(t)$** — pech ichidagi harorat, $^\circ\text{C}$;
- **T_0** — boshlang'ich harorat (**20°C**);
- **t** — vaqt (daqiqalarda).

Qalinligi 20 mm bo'lgan plitalar 1000°C gacha bo'lgan harorat ta'siriga duchor qilindi va qarama-qarshi tomonning harorati o'lchandi. Yong'inga chidamlilik mezoni – orqa (qarama-qarshi) tomonning harorati 180°C dan oshmasligi.

Eksperimental uskuna

500×500×20 mm o'lchamdagi plita namunalarining quyidagi tarkiblari tayyorlandi:

Tarkib	Vermikulit (%)	Dolomit (%)	Vollastonit (%)	Bog'lovchi (suyuq shisha, %)
№1	40	20	30	10
№2	30	40	20	10
№3	25	25	40	10

Sinovlar GOST 30247.1–94 ga muvofiq vertikal pechda o'tkazildi.

Sinov natijalari va muhokama.

60 daqiqa davomida ta'sir qilgandan so'ng plitalarning orqa tomonidagi maksimal harorat quyidagicha bo'ldi:

Tarkib	Temperatura, $^\circ\text{C}$	Olovbardoshlilik sinfi
№1	157	EI 60
№2	181	EI 45
№3	132	EI 90

3-raqamli tarkib eng yaxshi natijalarni ko'rsatdi, chunki unda vollastonit yuqori miqdorda bo'lib, u barqaror kristall panjarasi va past issiqlik o'tkazuvchanligi bilan ajralib turadi.

Texnik-iqtisodiy asoslash.

Ishlab chiqarilayotgan plitalarning 1 m² o'rtacha tannarxi taxminan 136 ming so'm/m² bo'lib, uni yonmaydigan gips tolali listlar bilan taqqoslash mumkin. Biroq u quyidagi ustunliklarga ega:

- Yuqori yong'inga chidamlilik (EI 90 gacha);
- Kamroq massa (o'rtacha 9 – 11 kg/m², analoglarda esa 12–14 kg/m²);
- Qizdirilganda toksik moddalarning ajralmasligi.

Xulosa.

O'tkazilgan tadqiqotlar va laboratoriya sinovlari shuni ko'rsatdiki, vermikulit, dolomit va vollastonit asosidagi silikat plitalardan foydalangan holda binolarning yong'in xavfsizligini oshirish juda samarali hisoblanadi. Asosiy natijalar quyidagicha:

1. Ishlab chiqilgan kompozit tarkiblar 20 mm qalinlikda *EI 90 darajasigacha bo'lgan yong'inga chidamlilikni ta'minlaydi.

2. Mustahkamlik/yong'inga chidamlilik nisbati bo'yicha eng maqbul tarkib – 40 % vollastonitli variant bo'lib, u qarama-qarshi tomon haroratini 132 °C gacha kamaytirish imkon beradi.

3. An'anaviy gipsli yoki yog'och tolali plitalardan farqli ravishda, silikatli materiallar qizdirilganda toksik moddalarni ajratmaydi, bu SanPiN 2.1.2.2645-10 talablariga to'liq javob beradi.

4. Iqtisodiy samaradorlik va ishlab chiqarish qulayligi bu yechimni qurilishda ommaviy tarzda qo'llash uchun mos ekanligini bildiradi.

Amaliy qo'llash

Amaliyotga joriy etishning quyidagi sxemasi taklif etiladi:

- Plitalarni vibroquyish texnologiyasi asosida ishlab chiqarish, so'ngra 180–200 °C haroratda konveksion pechda quritish;
- Plitalarni ma'muriy binolar, maktablar, shifoxonalar va ko'p qavatli uylarning ichki devorlarida qo'llash;
- Vermikulit va vollastonitning g'ovakli tuzilishi tufayli plitalarni shovqinni izolyatsiya qiluvchi tizimlar bilan integratsiya qilish;
- Standart o'lchamlar (1200×600×20 mm) dan foydalanish orqali montajni soddalashtirish.

Plitalarning fizik-mexanik xossalari

Ko'rsatkich	1-tarkib	2-tarkib	3-tarkib
Zichlik, kg/m ³	950	980	910
Egillishga qarshilik, MPa	3.5	3.1	3.8
Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Vt/(m·K)	0.31	0.34	0.28

***EI** – yevropa standartlari (masalan, EN 13501-2) bo'yicha qurilish konstruksiyalarining yong'inga chidamlilik tasnifiga tegishli.

Batafsilroq tushuntirib beramiz:

- **E (Integrity)** — konstruksiyaning yaxlitligi: material yoki elementning olov va issiq gazlarning ichkariga kirishini oldini olish qobiliyati.

- **I (Insulation)** — issiqlik izolyatsiyasi: elementning issiqlikning issiq tomondan ko'tarilishini cheklash qobiliyati.

Shunday qilib, **EI 90** deganda, konstruksiya quyidagilarni **kamida 90 daqiqa** davomida saqlab turishini anglatadi:

- yaxlitlik (E),
- issiqlik izolyatsiyasi (I)

bu standart yong'in sharoitida o'lchanadi.

Bu yuqori darajadagi yong'inga chidamlilik ko'rsatkichidir. **“EI 90 gacha yong'inga chidamlilikni ta'minlaydi”** degan ifoda, kompozit materiallarning olov ta'sirida 90 daqiqa davomida himoya xususiyatlarini saqlab qolishini bildiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. GOST 30247.1–94. Qurilish konstruksiyalari. Yong'inga chidamlilikni sinash usullari.
2. GOST 12.1.044–89. Moddalar va materiallarning yong'in-portlovchi xavfi. Ko'rsatkichlar nomenklaturasi va ularni aniqlash usullari.
3. Qurilish materiallari bo'yicha qo'llanma / tahriri ostida V.V. Merjanov. — M.: Stroyizdat, 2020.
4. ISO 834:2014. Yong'inga chidamlilik sinovlari — Qurilish elementlari.
5. Kuznetsov V.P., Goldberg A.S. Qurilishda vermikulit. — M.: Nauka, 2018.
6. Silantyev V.I. Silikatli bog'lovchilar asosidagi kompozitlar. — Yekaterinburg: UrFU, 2021.
7. RF patenti №2698312. Vermikulit va vollastonit asosidagi yong'inga chidamli qurilish materiali.

UO'K 677.05:628.511.1

TRIKOTAJ TO'QIMA ASOSIDA FILTRLOVCHI HIMOYA VOSITASINI YARATISH*Djalilova M.S., Sadikova N.R. t.f.n. dotent, Murodxo'jayeva K.B. t.f.f.d. (PhD)**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**Hafizov F.O. t.f.f.d. (PhD),**O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi*

Annotatsiya: Maqola to'qimachilik sanoati korxonalari, xususan, paxta qayta ishlash sexlarining changli chiqindilari atmosfera havosi ifloslanishining dolzarb muammosiga bag'ishlangan. Yugori korxonalarda mavjud havoni tozalash tizimlari samarali bo'lsa-da, kichik sexlar uchun iqtisodiy jihatdan samarali emasligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: atrof-muhitni muhofaza qilish, filtrlovchi material, trikotaj to'qima, changni ushlab, ishlab chiqarish chiqindilari, paxta changi, trikotaj filtr.

Annotation: This article addresses the pressing issue of atmospheric air pollution by dust emissions from textile industry enterprises, particularly from cotton processing workshops. It is noted that while existing air purification systems at large factories are effective, they are economically inefficient for small-scale productions.

Key words: environmental protection, filter material, warp-knitted structure, dust collection, industrial emissions, cotton dust, knitted filter.

Kirish. Respublikamizdagi mavjud korxona va tashkilotlar, faoliyat turiga ko'ra ishlab chiqarish jarayonida turli gaz, chang, tutun va hokazo chiqindilarni ajratadilar. Ushbu ajralib chiqadigan chiqindi zarrachalari sexdagi havo bilan qo'shilib, uni ifloslantiradi.

Ifloslangan havo sexdagi ishchi va xizmatchilarni (ko'rish, eshitish, nafas yo'llari, ichki a'zolar) barcha a'zolariga salbiy ta'sir etadi.

Korxonalarda ish jarayonida hosil bo'ladigan turli chiqindi zarrachalaridan sexdagi havoni mo'tadillashtirish maqsadida changlar maxsus kameralarga yig'iladi yoki maxsus filtrlovchi vosita yordamida tozalanib, so'ng atmosferaga chiqarib yuboriladi.

Bugungi kunda to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari ish jarayonida hosil bo'ladigan, ifloslangan havoni turli chiqindilardan to'liq tozalash imkoni mavjud emas. Bu chiqindilarning ma'lum miqdori atmosferaga chiqib, uni ifloslantirmoqda. Atmosferani turli organik va noorganik chiqindilardan himoya qilish, tabiatning ekologik holatini himoya qilish demakdir. Ekologik holatini yaxshilash va uni turli ishlab chiqarish chiqindilaridan himoya qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy izlanish yo'nalishi korxonalarda ish jarayonida sodir bo'ladigan turli chang, tutun va gazlardan atrof-muhitni himoya qilishdan iboratdir. Atrof muhitni oz bo'lsada turli chiqindilardan himoya qilish imkoniyati yaratilganligi Respublikamiz ekologik holatini yaxshilash bilan birgalikda fuqarolarimiz salomatligini himoya qilish muammosi ham ijobiy yechim topadi.


Ma'lumki, tolali materiallarni qayta ishlash jarayoni sex havosiga ko'plab miqdorda chang zarrachalarining ajralib chiqishi bilan bog'liq. Paxtani dastlabki ishlash, yigiruv, trikotaj, noto'qima materiallar ishlab chiqarish va paxta titish

sexlaridagi ish joylarida chang konsentratsiyasining sanitariya me'yorlaridan yuqori bo'lishi sexdagi ishlovchilar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hattoki kasbiy kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Shuni mamnuniyat bilan aytish mumkinki, hozirgi zamonaviy yirik to'qimachilik korxonalarida bu masala ijobiy hal qilinmoqda. Changli havoni uskunalardan bevosita so'rib olib, tozalash sistemalarida qayta-qayta tozalanib, atmosferaga chiqarib yuboriladi. Bozor iqtisodiga o'tish munosabati bilan, aholining ehtiyojini qondirish maqsadida respublikamizda ko'plab paxtani qayta ishlash (paxta titish) sexlari faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiyki ulardagi mehnat sharoitlari, zamonaviy fabrikalardagi sharoitlardan farq qiladi. Havoga chang ajralib chiqishi sanitariya me'yorlarida belgilangan yo'l qo'ysa bo'ladigan konsentratsiyadan (4 mg/m^3) yuqori. Zamonaviy changli havoni tozalash uskunalarini bu kichik sexlarda qo'llash iqtisodiy jihatdan samarali emasligi arzon va sodda usullarni izlashga majbur qilmoqda.

Tahlil va natijalar. Bu muammoni hal qilish maqsadida barcha amaliy izlanish ishlari «Nosirxon A.R.» xususiy firmasining paxtani kayta ishlash sexida olib borildi. Ish natijasiga ko'ra paxtani qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan changli chiqindilarni sex ichida tozalab, ularni atmosferaga chiqarilmaslik muammosini yechilganligidir.

Bu muammo ijobiy yakun topib, sexdagi changlar, havoni so'rib oluvchi ventilyator quvuri ichki qismiga tasma shaklda to'qilgan maxsus trikotajni joylashtirish hisobiga erishildi. Bu maxsus trikotaj tuzilishi 1-rasmda tasvirlanganidek, lastik asosida arqoq trikotaj to'qimasidan to'qilgan.



1-rasm. Arqoq trikotaj to'qima tuzilishi.

a) arqoq trikotaj to'qima tuzilishi, b) to'qima grafik yozuvi.

1. lastik xalqa qatori, 2. arqoq ipini xalqa bilan birikishi, 3. halqa ustuni.

Trikotaj to'qimasi asosini hosil etgan halqa qatori va arqoq ipi bir xil xususiyatga ega bo'lgan chang zarralarini o'ziga yaxshi tortuvchi ipdan to'qilgan.

Arqoq ipi xalqa ustunchalari oraliq qismiga erkin joylashgan bo'lib, u halqa bilan birikkan. To'qimadagi arqoq ipidan filtrlovchi vosita sifatida foydalaniladi. Lastik arqoq trikotajni bunday to'qilishini filtrlovchi vosita sifatida qo'llanilishining o'ziga xos ahamiyati mavjud. Filtrlovchi trikotaj to'qima 2-rasmda tasvirlangandek, tasma shaklidagi filtrlovchi trikotaj 1, changli havoni

so'rish quvuri 2 ning ichki qismiga mahsus qurilma 3 yordamida ma'lum burchak ostida zichlab joylashtiriladi.

Filtrlovchi moslamaning afzalliklaridan biri shundaki, uni hoxlagan changli havoni so'ruvchi quvurning hoxlagan uchastkasiga o'rnatish imkoni bor, lekin uni ventilyatordan oldin o'rnatilgani ma'qul, chunki u ventilyator ishini ham yengillashtiradi.

Lastik asosidagi arqoq to'qimali filtrlovchi trikotaj 4 da arqoq ipidan hosil qilingan uzaytirilgan protyajkalarining uzunligi va uning zichligi so'rilayotgan havodagi chang zarrachalari miqdoriga bog'liqdir. Havodagi chang konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, protyajkalarining uzunligi 150-200 mm qilib to'qilgan arqoq to'qimasi qo'llaniladi.

Filtrlovchi uzaytirilgan protyajkali trikotaj kichik buramga ega ipdan to'qilganligi, turli chang zarrachalari va chiqindi mayda tolalarni tutib qolish imkonini yaratadi.

Filtrlovchi trikotaj havoni so'ruvchi quvur ichki qismiga zichroq joylashsa, havo chiqindilardan yaxshiroq tozalanadi.

Changlangan havo zarrachalari quvur orqali tindirish bunkeriga ventilyator yordamida yo'naltiriladi. Havo xarakat yo'liga joylashtirilgan filtrlovchi vosita tukli protyajkalar yordamida chang va mayda tolalarni tutib qoladi. Filtrlovchi vositani yo'naltiruvchi quvur oraliq qismiga ko'p miqdorda, ketma-ket joylashganligi, barcha havoni o'z oraliq qismidan o'tishga majbur etadi. Bu esa havo tarkibiga birikkan turli chang va mayda tola zarrachalarini tutib qolish imkonini yaratadi. Natijada zarrachalardan tozalagan havo atmosferaga chiqarib yuboriladi. Ma'lum vaqtdan (4-8 soat) so'ng changlangan filtrlovchi vosita maxsus kameralarda havo yordamida tozalanib, ish holati qayta tiklanadi. Natijada filtrlovchi vositadan ishlab chiqarishda bir necha bor qayta foydalanish imkoni yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.N. Abdullayev, K.Z. Yunusov "Texnologik jarayonlarni loyihalash" Darslik Toshkent-2013 y.
 2. G'aniev T.A. To'qimachilik sanoatida mehnat muhofazasi. Darslik. – T.: TTYESI, 2013. – 172 bet.
 3. P.H. Абдуллаев, Ш. Р. Икромов, К.З. Юнусов "Технология вязания фильтра на основе трикотажных переплетении. Патент. Тошкент-2008-й.
 4. Абдуллаев Р.Н., Икромов Ш.Р., Юнусов К.З. Патент «Фильтрлаш материали» №IAP20060375. 17.10.2006 йил.
 5. <http://www.trikotazh.net>. Михайлова Л.А. Безопасность жизнедеятельности. Учебник под.ред.
 6. Киев - Харьков - Минск, 2007. 301 стр.
- Introduction to Health and Safety at Work. Phil Hughes, Ed Ferrett. The Boulevard, Langford Lane, Kidlington, Oxford OX5 1GB, UK. ISBN: 978-0-08-097070-7.Fifth edition 2011/Chapter 1.p-26.

UO'K: 691-492-027.267


Yuldashev J.R. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi

IQLIM O'ZGARISHINING O'RMON YONG'INLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rmon yong'inlaridagi iqtisodiy va ekologik zararlari, o'rmon yong'inlari soni va miqyosi, global isish, qurg'oqchilik, kuchli shamollar, ofatlarning kuchayishi kabi muammolar, o'rmon yong'inlariga iqlim o'zgarishining ta'siri ochib berilgan. O'rmon yong'inlari nafaqat tabiatni, balki inson hayoti, iqtisodiy faoliyat va ekologik barqarorlikni jiddiy xavf ostida qoldiribgina qolmasdan, insoniyatning e'tiborsizligi oqibatida yong'inlarning keng maydonlarga tarqalishi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: O'rmon yong'inlari, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, yonish intensivligi, iqtisodiy va ekologik oqibatlari, tahlillar.

Kirish. Jahondagi va O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishlari tushunchalariga izoh berib o'tar ekanmiz, iqlim o'zgarishlari tushunchalari quyidagicha talqin qilishimiz mumkin. Iqlim turlari — bu yerning turli hududlaridagi havo sharoitlarining uzoq muddatli xususiyatlarini belgilaydi. Ular asosan harorat, yog'ingarchilik, havo namligi va shamolning xususiyatlariga qarab klassifikasiya qilinadi. Bu kabi iqlim turlari o'rmon yong'inlarini o'chirishda o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. O'rmon yong'inlarini o'chirishda, nafaqat yonuvchi mahsulotlarning turlari, yong'in o'chirishda foydalaniladigan suv miqdori, yong'in o'chirishga jalb qilinadigan shahsiy tarkib soni balki, hududning iqlim sharoitidan kelib chiqib, yong'inni tez va samarali o'chirish imkoniyati cheklangan yoki cheklanmagan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Quyidagi 1-rasmda dunyo xaritasida iqlim o'zgarishi talqin qilingan.



1-rasm: Dunyo xaritasida iqlim o'zgarish tendensiyasi.

Quyida iqlim o'zgarishining tasniflarini keltirib o'tmoqchiman.

Ekvatorial iqlimi — Yer ekvatorial mintaqasiga xos bo'lgan iqlim turi bo'lib, yil davomida harorat $+26^{\circ}\text{C}$ dan $+30^{\circ}\text{C}$ gacha o'zgarib turadi, yog'ingarchilik miqdori 2000 mm, qurg'oqchilik mavsumi kuzatilmaydi, shamollar muntazam asosan sharqdan g'arbga qarab esib turadi, Janubiy Amerika, Markaziy Afrika, Sharqiy Osiyo, Markaziy Amerika, Sharqiy Afrika materiklariga xos iqlim sharoitlariga ega. Ekvatorial o'rmonlar — Yer sharidagi eng nam va biologik xilma-xillikka boy ekosistema bo'lib, ular ekvator atrofida joylashgan va doimiy issiq hamda yog'ingarchilikka boy iqlim sharoitida rivojlangan. Ekvatorial o'rmonlarga Amazon, Kongo o'rmonlari misol bo'la oladi. Mazkur o'rmonlarda 50-75 metrgacha o'sadi. Ekvatorial o'rmonlari qurg'oqchilik kuzatilayotganligi bois qisqarib ketmoqda.

Tropik iqlimi — Yerning ekvator atrofidagi hududlariga xos bo'lgan iqlim turi bo'lib, yil davomida harorat $+18^{\circ}\text{C}$ dan yuqori, yog'ingarchilik miqdori 1000 mm,

qurg'oqchilik mavsumi kuzatilmaydi, shamollar muntazam asosan Shimoliy sharqdan, janubga qarab esib turadi, Janubiy Amerika, Markaziy Afrika, Sharqiy Osiyo, Markaziy Amerika, Sharqiy Afrika materiklariga xos iqlim sharoitlariga ega. Yer sharidagi eng nam va biologik xilma-xillikka boy ekosistemalardan biri bo'lib, ular ekvator atrofida joylashgan va doimiy issiq hamda yog'ingarchilikka boy iqlim sharoitida rivojlangan. Tropik o'rmonlarga Sharqiy Malayziya, Filippin o'rmonlari misol bo'la oladi. Mazkur o'rmonlardagi daraxtlar 50-75 metrgacha o'sadi. Tropik o'rmonlari qurg'oqchilik kuzatilayotganligi bois qisqarib ketmoqda.

Mo'tadil iqlimi — yer sharining o'rta geografik kengliklarida, ya'ni 30° va 60° shimoliy va janubiy kengliklar orasida joylashgan hududlarda shakllanadi. Bu iqlim turi o'rtacha harorat, yog'ingarchilik va shamol rejimi bilan tavsiflanadi. Yozda harorat $+20^{\circ}\text{C}$ dan yuqori, qishda harorat -5°C atrofida bo'ladi. Yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 700 mm, Yevropa, Osiyo, Avstraliya materiklariga xos iqlim sharoitlariga ega. Mo'tadil iqlimdagi o'rmonlarda bargli hamda igna bargli daraxtlar o'sadi. Mo'tadil mintaqa o'rmonlari Sharqiy Xitoy va Shimoliy Amerikaning sharqiy qismi, Kavkaz, Himolay tog'lari, Evropaning ko'p qismi, Janubiy Avstraliya, Janubiy Amerikaning janubi hamda Rossiyaning Uzoq Sharqida eng boy va eng xarakterli hisoblanadi. Eman, kashtan, buk, zarang, grab, qayrag'och, shumtol va jo'ka — ushbu tabiiy hududning o'simliklar dunyosidagi asosiy vakillardir.

Subtropik iqlimi — Yer sharining 30° va 40° kengliklari orasida joylashgan hududlardagi iqlim turi bo'lib, u mo'tadil va tropik iqlimlar o'rtasidagi o'tkazgich zona sifatida xisoblanadi. Yozda harorat $+20^{\circ}\text{C}$ dan yuqori, qishda harorat -5°C atrofida bo'ladi. Yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 700 mm, Evropa, Osiyo, Avstraliya materiklariga xos iqlim sharoitlariga ega. Subtropik o'rmon - 25° s oralig'ida tropik, ekvatorial va subekvatorial mintaqalarida tarqalgan. Subtropik iqlimda Evkalift, Tsitrus, Kashtan, Palma, Zaytun daraxtlari o'sadi.

Polyar iqlimi — Yer sharidagi eng sovuq va qattiq iqlim turi bo'lib, asosan Arktika va Antarktikada joylashgan. Shamol yo'nalishlari sharqdan g'arbga qarab esadi. Qishda harorat -40°C va undan past haroratda bo'ladi. Yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 250 mm, Antarktida va Arktikaga xos iqlim sharoitlariga ega. Polyar iqlim o'rmonlarida sovuq iqlimga mos daraxtlar, ya'ni Archa, Tayga daraxtlari keng tarqalgan.

Cho'l iqlimi — Yer sharidagi eng quruq va qattiq iqlim turi bo'lib, u kam yog'ingarchilik, yuqori haroratlarda va katta kunduz-tugun harorat farqi bilan xarakterlanadi. Shamol yo'nalishi vaqti vaqti bilan sharqdan g'arbga qarab esib turadi. Yozda harorat $+40^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'ladi. Yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 250 mm, Markaziy Amerika materiklariga xos iqlim sharoitlariga ega. Cho'l iqlimi hududlarida Saksovul, Akasiya, Kaktus kabi daraxt va o'simliklar keng tarqalgan. Ularning tana ildizlari qalin bo'ladi.

Bolat iqlimi — Yer sharidagi eng quruq va qattiq iqlim turi bo'lib, u kam yog'ingarchilik, yuqori haroratlarda va katta kunduz-tugun harorat farqi bilan xarakterlanadi. Shamol yo'nalishi vaqti vaqti bilan sharqdan g'arbga qarab esib turadi. Yozda harorat $+40^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'ladi. Yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 250 mm, Markaziy Amerika materiklariga xos iqlim sharoitlariga ega. Bolat iqlim o'rmon hududlarida Saksovul, Qizil va Oq Bodomlar, Palma kabi issiqqa moslashgan daraxt va o'simliklar unib o'sadi.

O'rmon yong'inlari natijasida tuproqning unumdorligi pasayadi, suv havzalari esa kul va yonuvchi qoldiqlar bilan ifloslanadi. Bu holat ichimlik suvi manbalariga ham tahdid tug'diradi. O'zbekiston sharoitida o'rmon yong'inlari — bu faqatgina ekologik falokat emas, balki iqtisodiy barqarorlik va jamiyat xavfsizligi uchun ham jiddiy tahdidlardan biri sanaladi. [7]

Tadqiqot metodologiyasi. Yer yuzida har yili 340 million gektardan ortiq tabiiy hududlar (shu jumladan o'rmonlar) yong'indan zarar ko'radi. Yillik yonayotgan o'rmonlarning eng katta hududlari Avstraliya, Afrika, Kanada, Rossiya Federatsiyasi mamlakatlariga to'g'ri keladi. Shu sababdan, ushbu maqolada o'rmon yong'inlarining jamiyatimiz, ekologiya, flora-fauna hamda hayvanot olamiga salbiy ta'siri o'rganish maqsadida o'rmon yong'inlarini o'chirish yoki oldini olishda yangicha metodlardan foydalanishni taqozo qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Iqlim o'zgarishlarining yong'inlarga ta'siri bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri John T. Abatzoglou o'zining dissertatsiya ishini yozishda mo'tadil, issiqlik kabi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan yong'inlarning ehtimolini va ahamiyatini baholashga qaratilgan maqola chop qilgan. U o'zining maqolasida iqlim o'zgarishi, o'rmon yong'inlari, yong'in oqibatida ajralib chiqishi mumkin bo'lgan toksik gazlar va o'rmon yong'inlarining uglerod siklga ta'siri mavzusiga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, o'rmon ekologiyasi va global iqlim o'zgarishlar sohasida izlanishlar olib borgan ekolog olim Yude Pan o'zining izlanishlari natijasida o'rmonlarning karbon zaxirasi, uglerod sikliga ta'siri va issiqlik, qurg'oqchilik kabi iqlim o'zgarishlarini keng yoritib bergan.

Yonuvchan moddalardan ajralib chiqayotgan eritmalar, yong'inning bir muncha kamayishini ta'minlaydi, bunga qarama-qarshi shamollar, pastki harorat, shuningdek, boshqa ob-havo omillari bilan yong'inning tez rivojlanishiga ta'sir qilishi turgan gap. Shuning uchun, kunduz vaqtida nazoratdan chiqib ketgan yong'inlarni, kechasi o'chirish (tarqalishini cheklash) mumkin. Agar kunduzgi vaqtda yong'inni o'chirish imkoni bo'lmasa, unda asosiy harakatlar (1-jadvalga qarang) to'g'ri va samarali kechqurun olib borilishi lozim. [19]

1-jadval

	O'rmon yong'inining kunlik sikllari taxminan quyidagicha vaqt rejimida (soatbay misolida) quyidagicha rivojlanadi: Yengil yonish intensivligi (soat) 9 dan 21 gacha — tushirish juda qiyin; Yoninish intensivligining pasayishi (soat) 21 dan ertalabgi 4 gacha — tushirish samaradorligi oshadi; Yoninish intensivligining ancha kamayishi (soat) 4 dan 6 gacha — tushirish uchun eng yaxshi vaqt; Yoninish intensivligining oshishi (soat) 6 dan 9 gacha — tushirish uchun qulay vaqt hisoblanadi.
---	---

Topografik holat bo'yicha, tog'li hududlarda yong'inlarning tarqalishida o'z ta'sirini ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Kunduzi tabiiyki, quyosh nuri yerning yuza qismini isitadi, yerga yaqin havo qatlamlari isingan holatda yuqori qatlamlarga qarab intiladi. Shuning uchun kunduz paytida havo oqimlari odatda daryolar bo'ylab yuqoriga intilishini kuzatishimiz mumkin. Tunda esa yer betining sovishi holatida havo oqimlari o'z yo'nalishini o'zgartiradi (o'z navbatida shamol yo'nalishi ham tabiiy ravishda o'zgaradi) va daryolar bo'ylab past yuza qismi bo'ylab issiq havo oqimini kuzatishimiz mumkin.

Tog'li sharoitlarda o'rmon yong'inining tarqalish yo'nalishi va tezligi ularning nishab bo'ylab tikkalik darajasiga bog'liq. Yong'in tog'ning (2-jadvalda keltirilgan kabi) nishabligi qancha tik bo'lsa, tarqalish tezligi shunchalik yuqori bo'ladi, agar shamol bu vaziyatni o'zgartira olmaydigan kuchga ega bo'lmasa yong'inni oldini olish bir muncha qiyinchiliklarga olib keladi.

2-jadval

	Nishablik 5° tikkalikda bo'lsa, yong'inning tarqalish tezligi 1,2 barobar oshadi, Nishablik 10° tikkalikda bo'lsa, 1,6 barobar oshadi, Nishablik 15° tikkalikda bo'lsa, 2,1 barobar oshadi, Nishablik 20° tikkalikda bo'lsa, 2,9 barobar oshadi, Nishablik 25° tikkalikda bo'lsa, 4,1 barobar oshadi.
---	--


Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasining o'rmon (to'qay, chakalakzor)larida so'ngi 5 yilda 64 ta yong'inlar 770 gektarga yaqin maydonlardagi flora-faunaga zarar yetkazilgan. Hududlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Toshkent viloyatida 53 ta yong'inda 44 gektar, Samarqand viloyatida 11 ta yong'inda 12 gektar, Sirdaryo viloyatida 7 ta yong'inda 28 gektar, Qoraqalpog'iston Respublikasida 6 ta yong'inda 21 gektar, Jizzax viloyatida 5 ta yong'inda 92 gektar, Surxondaryo viloyatida 3 ta yong'inda 140 gektar, Farg'ona viloyatida 3 ta yong'inda 101 gektar, Qashqadaryo viloyatida 3 ta yong'inda 4 gektar, Andijon viloyatida 2 ta yong'inda 320 gektar, Namangan viloyatida 1 ta yong'inda 30 sotix o'rmon yonganligi qayd etilgan.

Xulosa o'rnida, o'rmonlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlarni oldini olish bilan cheklanmasdan, o'rmon xo'jaligi agentligi xodimlarini malakali va bilimli qilib tayyorlashda o'quv kurslarini tashkil qilishni, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarni oldini olish uchun profilaktik ishlarini amalga oshirishni, o'rmonlardagi sodir bo'ladigan favqulodda holatlarni oldini olish chora-tadbirlarini ko'rishimizda, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlarni tahlil qilishni bilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ablayev S.M., Yuldashov Y.X. Madaniy o'rmonlar. Toshkent-2000. 76-bet.
2. Родин А.Р. Лесных культуры и защитное лесоразведение. Москва 1996 – 87 ст.
3. Лохнер А. Лес, как устроена лесная экосистема. Москва 2012 – 32 ст.
4. Хазе А. Деревья. Как жизни человека и дерева переплетены друг с другом. Москва 2006. 23 ст.
5. Qalandarov M.M. O'rmon taksatsiyasi. Toshkent-2014. 73-bet.
6. Berdiyev E.T., Saloxiddinov G'.M., Turdiyev S.A., Shaymatov O.A., Xamroyev H.F. O'rmon tuzish. Toshkent-2016. 4-bet.
7. Berdiyev E.T., Saloxiddinov G'.M., Turdiyev S.A., O'rmonchilik. Toshkent-2012. 48-bet.
8. Казаков М.В., Применение поверхностно-активных веществ для тушения пожаров. Москва 1977. 81 ст.
9. Fraser-Mitchell J, Evaluation of evacuation using lifts and escalators, BRE Conference 2007.

ILMIY-USLUBIY NASHRLAR



**Avtomatik yong'in o'chirish
qurilmalari.
O'rnatishga talablar, ishlarning
bajarish va qabul qilish qoidalari**

RH 01-001:2022

**O'zbekiston Respublikasi FVV
YX va FVM ITI**

**S.Djurayev,
R.Tursunov,
R.Sadikov,
B.Muxitdinov**

Toshkent 2022.

Mazkur qoidalar suvli, ko'pikli, gazli, aerosolli, kukunli va robotlashtirilgan avtomatik yong'in o'chirish qurilmalarini (keyingi o'rinlarda–AYoO'Q) montaj qilish, sozlash, sinov ishlarini olib borishda va foydalanishga topshirish ishlariga tatbiq etiladi.

Ob'ektlarda AYoO'Q larni loyihalash, montaj, sozlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlari qonun hujjatlariga muvofiq xabardor etish tartibining tasdiqnomasi yoki belgilangan namunadagi litsenziyalarga ega bo'lgan tashkilotlari tomonidan bajariladi.

Ushbu qoidalar D sinfidagi yong'inlarni (GOST 27331 bo'yicha), shuningdek kimyoviy aktiv modda va materiallarni o'chirish uchun mo'ljallangan AYoO'Qni montaj qilish, sozlash, ishlarni bajarishda va qabul qilishda qo'llanilmaydi.

IXTIRO VA ISHLANMALAR

YONMAYDIGAN ISSIQLIKDAN
SAQLOVCHI TARKIB

IXTIROGA PATENT

№ IAP 02186

Ixtiro mualliflari:

Qo'ldoshev Abdulla Hamidullayevich,
Nurmuxammadov Jaloliddin
Shermuxammad o'g'li,
Kurbanbayev Shuxrat Ergashevich,
Mirzaev Sirojiddin Zayniyevich,
To'xtamurodov Dilshod Midxatovich,
Ibragimov Baxrom Toshmuradovich,
Avdiyevich Vladimir Nikolayevich,
Yakubov Ulug'bek Adxamovich,
Yakubov Qodirjon Xusanboyevich
Pardayev Abduraxmon Panjiyevich
Djurayev Sobir Mirzayevich,
Tojiboyev Baxtiyor Xamidovich

Ixtironing foydalanish sohasi: Qurilish materiallari, barcha turdagi fuqarolik va sanoat qurilishida po'lat, temir-beton yuk ko'taruvchi va o'rab turuvchi qurilish konstruksiyalarini yong'in va issiqlikdan himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Ixtironing vazifasi: yonmaydigan o'ta yengil issiqlik izolyatsion kompozitsiyani yaratish (g'ovaklik tufayli), metall, yog'och va temir-beton buyumlar uchun yong'in va issiqlikdan himoya qiluvchi qoplamalarning samaradorligini oshirish, texnologik jarayonni soddalashtirish va to'ldiruvchi moddani olish tayyorlash tannarxini arzonlashtirish.

Ixtironing mohiyati: yonmaydigan issiqlikdan saqlovchi kompozitsion tarkib shu jumladan bog'lovchi sifatida suyuq natriyli shisha, o'tga chidamli to'ldiruvchi, o'tga chidamli to'ldiruvchi sifatida dolomitni va texnologik qo'shimcha sifatida ABSK qo'llanidi.

JURNALGA MAQOLALARNI TAQDIM ETISH TALABLARI

“Favqulodda vaziyatlar va yong‘in xavfsizligi. Muammo va Innovasiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnaliga taqdim etiladigan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar jahon andozalari hamda O‘zbekistonda amal qilayotgan ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun ishlab chiqilgan andozalar talablari asosida kelib chiqadi.

1. Muallif (yoki mualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi ilmiy jurnalning ruknlariga mos kelishi shart.

2. Maqola sarlavhasidan oldin UO‘K (УДК) qo‘yiladi (<https://teacode.com/online/udc/>).

3. Maqola xalqaro andozalar talabi doirasidagi quyidagi aniq bandlarga ega bo‘lishi lozim:

1. Maqola mavzusi (Title)

Maqola mavzusi maqolaning tadqiqot yo‘nalishini aniq ifoda etishi lozim. U o‘zbek, rus hamda ingliz tillarida taqdim etilishi kerak.

2. Maqola muallifi to‘g‘risida ma’lumot (Author information)

Ushbu qismda muallifning ismi-sharifi, ish joyi va lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron pochta manzili va muloqot telefonlari kiritiladi.

3. Maqola annotasiyaci (Annotation)

Maqolalarning annotasiyasi 10-12 qatordan oshmagan holda o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

4. Kalit so‘zlar (Key words)

Kalit so‘zlar maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so‘zlar hisoblanadi. scholar.google.com yoki google.com qidiruv tizimida maqola oson va eng birinchi sahifalarda topilishi uchun tayanch so‘zlarning har biri asosiy matn tarkibida o‘rtacha 6-8 marta takrorlanishi tavsiya etiladi.

5. Kirish (Introduction): Kirish qismida asosan tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Mazkur qism tadqiqot mavzusining tanlanish asosi, uning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini tushuntirib beradi.

6. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlarga ega ekanini namoyon etuvchi qism

hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili mavjud intellektual hudud doirasini baholash va shu asosda ma'lum xarita yaratishni anglatadi. Adabiyotlarning tanqidiy tahlilidagi urinishlar mazkur mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O'z mazmuniga ko'ra har qanday tadqiqot ayni shu sohada yaratilgan avvalgi bilimlar negizida quriladi. Adabiyotlar bo'yicha tahlil asosan sohadagi eng yangi jurnal maqolalari va boshqa turdagi ma'lumot manbalari asosida amalga oshadi (mavzuga oid maqolalarni kalit so'zlar yordamida www.scholar.google.com qidiruv tizimidan topish mumkin).

7. Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot metodologiyasi tadqiqotning eng muhim qismlaridan biri bo'lib, u o'tkazilayotgan tadqiqotning umumiy xaritasi, tadqiqot yo'li va natijaga olib boruvchi xaritaviy chizgilari hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi tadqiqot falsafasi va yo'nalishini belgilash, tadqiqot dizayni, ya'ni tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo'llari va tadqiqot etikasini belgilash, tadqiqot ob'yektining tanlovi, birlamchi yoki ikkilamchi ma'lumot manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar, tadqiqot strategiyasini aniqlash bo'yicha rasional qaror qabul qilish asosida qo'yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo'lni belgilashni anglatadi. Metodologiya qismining mukammalligi tadqiqot uchun belgilangan yo'lning ishonchliligi va aniqliligini asoslash orqali namoyon bo'ladi.

8. Tahlil va natijalar (Analysis and results): Tadqiqotning tahlil qismi tadqiqot metodologiyasida avvaldan belgilab olingan tahlil usullari (matematik modellar va boshqalar) orqali yig'ilgan ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi. Bunda faqatgina tahlil usulining natijalari ifoda etiladi; topilgan natijalar bo'yicha muhokama maqolaning keyingi qismining vazifasi hisoblanadi.

9. Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Tadqiqotning maqsad, vazifalarining anglashilganligi hamda tadqiqot savollarining o'z javobini topganligi, tadqiqotning asosiy natijalariga va tadqiqotning umumiy jarayoniga umumiy xulosalar, shu bilan birga, takliflar

va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan holda kelajak tadqiqotishi yo'nalishlari maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etishi lozim.

10. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

Ushbu qismda tadqiqotda foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro'yxati [1], [2] yoki [3] ketma-ketligida qo'yiladi:

- mualliflar ismi-sharifi, kitob nomi, nashr manzili nashriyot nomi, yili, betlari;

- mualliflar ismi-sharifi, maqola nomi, jurnal nomi, nashri, yili, soni, betlari.

Maqola matni shrifti "Arial"da, 14 kirill yoki lotin alfavitida bo'lib, qatorlar oraliqlari masofasi 1.5 intervalda bo'lishi lozim. Maqola matni sahifasining barcha (o'ng, chap, yuqori va quyi) tomonidan 2 santimetrdan iborat masofa qoldiriladi. Maqolaning maksimal hajmi 10 betdan oshmasligi, minimal hajmi esa 5-6 betdan kam bo'lmasligi hamda foydalanilgan adabiyotlar soni kamida 10-15 manbadan iborat bo'lishi lozim.

Maqolada albatta jadval, chizma yoki rasmlar bo'lishi shart. Jadval nomlari uning yuqori qismida, chizma yoki rasm nomlari ularning quyi qismida yozilishi hamda ularning manbasi aniq ko'rsatilishi lozim. Maqolada jadval, chizma va rasmlar berilishi maqola sifatini oshiruvchi manbaa hisoblanadi.

Maqolalar o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

O'zbek tilidagi **o'**, **g'**, **q**, **h** kabi harflar ilmiy maqola matnida gaplar tarkibida to'liq yozilishi shart. Aks holda ilmiy maqola tahririyat tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Yuborilgan maqolalarning barchasi "Antiplagiat" tizimida tekshiriladi.

Jurnal manzili: 100017, Toshkent sh., Yunusobod tumani, SH.Rashidov ko'chasi 17 uy tel.: (71) 212-68-68, ye-mail: niipb@fvv.uz.

Bog'lanish uchun: O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti Ilmiy-tadqiqot bo'limi. Tel.: (71) 212-68-69.

Jurnal havolasi: <https://gov.uz/oz/fvv/pages/jurnal>

Jurnal pochta manzili: ilmiytadqiqot11@gmail.com

Telegram kanali: https://t.me/ilmiy_texnik_elektron_jurnal

**“FAVQULODDA VAZIYATLAR VA YONG‘IN XAVFSIZLIGI.
MUAMMO VA INNOVATSIYALAR”
ILMIY-TEXNIK ELEKTRON
JURNAL**

**“ЧРЕЗВЫЧАЙНЫЕ СИТУАЦИИ И ПОЖАРНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ.
ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИИ”
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ
ЖУРНАЛ**

**“EMERGENCIES AND FIRE SAFETY.
PROBLEMS AND INNOVATIONS”
SCIENTIFIC AND TECHNICAL ELECTRONIC
JOURNAL**

**“AYRIQSHA JAG‘DAYLAR HAM ORT QAWIPSIZLIGI.
MASHQALA HAM INNOVATSIYALAR”
ILM-TEXNIK ELEKTRON
JURNAL**

**O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti**